



QURILISH SOHASIDA YANGICHA YONDASHUVLAR JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-fevral kuni urbanizatsiya va uy-joy qurilishida yangicha yondashuvlarni joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Aholining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida so‘nggi 8 yilda mamlakatimizda 120 million kvadrat metr yoki 600 mingdan ziyod xonadonlar qurilib, foydalanishga topshirildi. Uy-joy sotib olishga ko‘maklashish uchun 541 ming nafar fuqaroga 103 trillion so‘m arzon ipoteka kreditlari va subsidiyalar ajratildi.

Qurilish ishlarining ko‘lami kengaygani qurilish materiallari sanoati rivojiga katta turtki berib, ko‘plab hududlarning “drayveri”ga aylandi. Urbanizatsiya darajasi 1991-yildagi 40,3 foizdan 51 foizga yetdi.

Davlatimiz rahbari qilingan ishlar hali yetarli emasligini ko‘rsatib o‘tdi. Respublika bo‘yicha har yili 200 mingga yaqin yangi oila tashkil topmoqda. Bu yangi uylar, yo‘llar va ijtimoiy infratuzilmaga talab yanada ortadi degani. Qolaversa, hozirda aholining bir kishi boshiga o‘rtacha 18,9 kvadrat metr turar joy maydoni to‘g‘ri kelmoqda. Bu ko‘rsatkichni kamida 23 kvadrat metrga yetkazish uchun 2040-yilgacha yangi uy-joy qurilishi sur‘atini 280 mingga oshirish lozim.

Shu maqsadda urbanizatsiya sohasida boshqaruv yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yilib, alohida qo‘mita tuzildi, uning oldiga uy-joy qurish hajmlarini bosqichma-bosqich oshirish vazifasi qo‘yildi. Xususan, 2026-yilda 140 ming, 2027-yilda 150 ming va 2028-yilda 160 ming xonadonli uy-joylar qurish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz biznes va startaplar rivoji uchun sharoit yaratish, sanoat va AT klasterlarini shakllantirish, mehnat unumdorligini oshirishda aql bilan tashkil etilgan urbanizatsiya muhim o‘rin tutishini ta’kidladi.

Taqdimotda yer resurslaridan samarali foydalanish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Xalqaro tashkilotlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, aholi punktlari tartibsiz kengayib borishi ayrim hududlarda kelgusida ekin yerlarining tanqisligiga olib kelishi mumkin.

Shu munosabat bilan eskirgan uy-joy fondini yangilash, uy-joy qurilishida renovatsiya ulushini oshirish zarurligi ta’kidlandi. Bunda renovatsiya hissasini hozirgi 15 foizdan 2040-yilga qadar 60 foizga yetkazish, “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etishni kengaytirib, 120 taga yetkazish zarurligi qayd etildi.

Bugungi kunda qurilish sohasidagi ruxsat olish jarayonlari 9 ta bosqichdan iborat bo‘lib, o‘rtacha 90-120 kun vaqt talab qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda “qurilishga tayyor yer” mexanizmi orqali bu ishlarga ketadigan vaqt 7-15 kunni tashkil etayotgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Mamlakatimizda ushbu tizimni joriy etish taklif qilindi. Unga ko‘ra, barcha tayyorgarlik jarayonlari va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish yer maydonlari aksionga qo‘yilishidan oldin bajariladi. Natijada tadbirkor auksionda yerni yutib olgandan so‘ng

qo‘shimcha hujjat yig‘masdan va kelishuvlardan o‘tmasdan, barcha hujjatlarni avtomatik tarzda olish imkoniga ega bo‘ladi. Qurilishga tayyor bo‘lmagan yerlarni auksionga chiqarish taqiqlanadi, jarayonlar esa shaffof va qisqa muddatlarda amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Qurilish sifati, birinchi navbatda, loyiha hujjatlariga bog‘liq. “ToshkentboshplanLITI”, “O‘zshaharsozlikLITI”, “O‘zGASHKLITI”, “Qishloqqurilishloyiha” tashkilotlarining faoliyatini tubdan yaxshilash, buning uchun yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish zarurligi qayd etildi.

Urbanizatsiya va uy-joy qurilishi jarayonlarini to‘g‘ri hamda samarali rejalashtirish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanish kerak. Bu borada taqdimotda bosh va master rejalarning yagona ma’lumotlar bazasi, qurilishga tayyor yer maydonlari bazasi — “Yer banki”, ko‘p kvartalili uylarning yagona geoxorborot bazasi, “eskrou” tizimi, quvurchiilar reytingi va boshqalardan iborat “Uy-joy” axborot tizimini ishlab chiqish taklif etildi.

Prezidentimiz taqdim etilgan takliflarni ma’qullab, sohada rejali, hisob-kitobga asoslangan va uzoq muddatli yondashuvlarni izchil joriy etish, belgilangan ko‘rsatkichlar ijrosini ta’minlash yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

SUVDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev suv resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash hamda suv tejoyvchi texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar 2,6 million gektarga yoki sug‘oriladigan yer maydonlarining 60 foiziga yetdi. Taqqoslash uchun, 2017-yilgacha respublikamizda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar jami 19 ming gektarni tashkil etar edi. Mazkur ishlar natijasida har yili 2,5 milliard kub metr suv tejallishiga erishilmoqda.

Bugungi taqdimotda bu boradagi ishlar qamrovini yanada kengaytirish bo‘yicha ishlangan yangi takliflar ko‘rib chiqildi.

Jumladan, 2028-yilga qadar suv tejoyvchi texnologiyalarni 930 ming gektar yerda o‘rnatib, bunday maydonlarni 3,5 million gektarga yoki jami sug‘oriladigan yerlarning 80 foiziga yetkazish rejalashtirilgan. Natijada har yili 3,5 milliard kub metr suvni iqtisod qilish, 300 ming gektar yerning suv ta’minotini yaxshilash va takroriy ekinlarni sug‘orish imkoniyati yaratiladi.

Suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish orqali tejalgan suv resurslari suv ta’minoti og‘ir hududda joylashgan fermerlarga kafolatli yetkazib berilishga zamin yaratadi.

Buning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari qo‘llanadi.

Xususan, suv resurslari uchun soliq stavkasi va subsidiyalar miqdorini yer maydonlarining suv bilan ta’minlanganlik holatidan kelib chiqib belgilash taklif qilindi. Masalan, suv bilan barqaror ta’minlanmagan hududdagi sug‘oriladigan yer maydonlarida suv tejoyvchi texnologiyalar

joriy qilinganda, ajratiladigan subsidiyalarga 1,25 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llagan holda hisoblanadi.

Shuningdek, suv tejoyvchi texnologiyalarni bank kreditlarini olmasdan o‘z mablag‘lari hisobidan ishga tushiradigan tashabbuskorlarga subsidiya ajratishning yangi tizimi joriy etiladi. Bunda tegishli loyiha-smeta hujjatlari va loyihani amalga oshirish bo‘yicha ta’minotchi korxona bilan tuzilgan shartnoma asosida subsidiya mablag‘larining 50 foizi Agrar sohada to‘lovlar agentligi tomonidan oldindan ajratiladi.

Endilikda boshqoqli don ekinlarini yetishtirishda tomchilatib va diskret sug‘orish texnologiyasi joriy qilingan maydonlar uchun ham subsidiya beriladi.

Suv tejoyvchi texnologiyalarni xarid qilish va qurish maqsadida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo‘yicha foizlarni qisman qoplab berish yo‘lga qo‘yiladi. G‘o‘za maydonlarida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilish uchun kredit mablag‘lari har yil noyabr oyidan boshlab ajratiladi.

Suv tejoyvchi texnologiyalarni qurib bergan pudrat tashkilotlari har bir loyihaga kamida 2 yillik kafolat muddati berishi hamda 5 yil davomida servis xizmatlarini ko‘rsatishi majburiy etib belgilanadi.

Sohada davlat nazoratini takomillashtirish masalalariga to‘xtalib o‘tiladi.

Suv olish joylarida suvni boshqarish va hisobini yuritishni takomillashtirish maqsadida sholi yetishtiriladigan hamda baliqchilik xo‘jaliklari tashkil qilingan yer maydonlarida “aqli” suv o‘lchash va hisoblash vositalari o‘rnatiladi. Ular “Suv hisobi” axborot tizimiga integratsiya qilinadi.

Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining

hududiy bo‘linmalarida suv tejoyvchi texnologiyalardan hamda suvdan foydalanishni monitoring qilish bo‘limlari tashkil etiladi. Tadbirkorlik subyektlarida inspeksiya tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlarni yonkameralardan foydalangan holda amalga oshirish tartibi joriy etiladi. Inspeksiya qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarida suvdan foydalanish va suv isrofini monitoring qilish maqsadida dronlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Shu bilan birga, o‘rnatilgan suv tejoyvchi texnologiyalaridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish zarurligi qayd etildi. Suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilingan va subsidiya ajratilgan yer maydonlarida bunday texnologiyalar yoki ularning asosiy qismlarini ishlatmasdan an’anaviy usulda sug‘orish suvdan o‘zbohimchalik bilan foydalanish deb baholanadi.

Fermerlarning suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish sohasidagi manfaatlarining himoyasini kuchaytirish maqsadida “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan suv tejoyvchi texnologiyalarni o‘rnatish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan sudlarga da’vo arizalarini kiritishda davlat bojidan ozod qilish taklif etildi.

Sohada kadrlar salohiyatini oshirish — dolzarb masala.

Taqdimotda ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish yuzasidan rejalar haqida ham axborot berildi. Jumladan, “Suvchilar maktabi” loyihasi doirasida joriy yilda 10 mingga fermer xo‘jaliklari xodimlarining malakasi oshiriladi, 358 nafar suv xo‘jaligi xodimi malaka oshirish uchun xorijga yuboriladi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – POKISTON: MINTAQAVIY BOG‘LIQLIK, O‘ZARO MANFAAT VA IZCHIL TARAQQIYOT STRATEGIYASI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Pokiston Islom Respublikasiga rejalashtirilayotgan rasmiy tashrfi mamlakatimiz tashqi siyosatida Markaziy va Janubiy Osiyoni o‘zaro bog‘lashga qaratilgan uzoq muddatli strategiyaning naybatdagi muhim bosqichi bo‘ladi. Bu tashrfif ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yangi sifat


darajasiga ko‘tarish, iqtisodiy, ijtimoiy, transport, energetika sohalarida o‘zaro manfaatli sheriklikni chuqurlashtirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash orqali barqaror rivojlanishga qaratilgan aniq natijalarni ko‘zda tutadi.

[Davomi 2-betda](#)

BUYUK SHAXMAT TAXTASI: TARIXIY XOTIRA, GLOBAL RAQOBAT VA CHEMPIONLAR AVLODI



Joriy yilning 16-yanvaridan 1-fevraligacha Niderlandiyaning Veyk-an-Zeye shahrida shaxmat olamining eng nufuzli musobaqalaridan biri — “Tata Steel Chess 2026” xalqaro turniri bo‘lib o‘tdi.

[Davomi 2-betda](#)

Prezidentimiz raisligida 23-yanvar kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha 2026-yilda asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Ushbu yig‘ilish masalalar mazmuni va ko‘lami jihatidan mamlakat ijtimoiy siyosati evolyutsiyasida burilish nuqtasi bo‘ldi.

Boshqariladigan manzillilikning navbatdagi bosqichi

Islohotlar natijalari ijtimoiy siyosatning navbatdagi bosqichiga o‘tilayotganini namoyish etmoqda. Ilk marotaba kambag‘allikka qarshi kurash mahallalar darajasidagi aniq natijalar bilan bevosita bog‘landi.

Bunday o‘zgarish erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar samarasidir. 2025-yil yakuniga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyoti 7,7 foiz o‘sdi, bu prognoz qilinganidan (6,5 foiz) sezilarli darajada ko‘p, YIM hajmi esa 147 milliard dollardan oshdi va aholi jon boshiga qariyb 3,9 ming dollarni tashkil etdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o‘sish sur‘atlari 2024-yilgi ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘ldi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 43 milliard dollarga, eksport esa 33,8 milliard dollarga yetdi. Inflyatsiya darajasi 2025-yilda 9,8 foizdan 7,3 foizga pasaydi.

Ishonchli iqtisodiy o‘sish budjetda tushumlar sezilarli darajada oshishini



ta’minladi, ular ijtimoiy masalalarni hal qilish, kambag‘allikka qarshi kurashish va mahallalarni rivojlantirishga izchil yo‘natildi. Ushbu omil hisobiga 2025-yilda 5,4 million kishi daromad manbalari bilan ta’minlandi va 330 mingga oila kambag‘allikdan chiqarildi. Natijada ishsizlik darajasi 4,8 foizga, kambag‘allik darajasi esa 5,8 foizga kamaydi.

Umumiy kambag‘allik ko‘rsatkichlari pasaygani sari uning geografyasi ham o‘zgarib, mahalliy, konsentratsiyalashgan va turfa bo‘lib bormoqda. Kam ta’minlangan oilalarning deyarli uchdan bir qismi va ishsizlarning qariyb beshdan bir qismi muayyan mahallalarda jam bo‘lgan, bu esa yangi modelga o‘tishni talab qildi.

Shu nuqtayi nazardan, har bir mahalla darajasida erishilgan natija asosiy

indikatorga aylanmoqda. Kambag‘allik yoki ishsizlikning saqlanib qolayotgani choralarini yanada takomillashtirish zarurligini bildiradi.

Shu munosabat bilan ilk marotaba milliy miqyosda mamlakatning barcha hududlarini kambag‘allik darajasi bo‘yicha tizimli tasniflash o‘tkazildi. 20 ta mezon asosida 37 ta “og‘ir” toifadagi tuman va 903 ta “og‘ir” mahalla aniqlandi, ularda qariyb 120 mingga kambag‘al oila va taxminan 155 ming ishsiz fuqaro istiqomat qiladi. Shu bilan bir vaqtda yangi O‘zbekiston qiyofasini shakllantirish bo‘yicha ishlar yana 33 ta tuman va 330 ta “og‘ir” mahallada boshlab yuborildi.

Yangi yondashuvning o‘ziga xos xususiyati shundaki, “og‘ir” hududlarga tarkibiy transformatsiya nuqtalari sifatida

qaraladi. Har bir mahalla va tuman uchun iqtisodiy, agrar, sanoat, logistika yoki servis yo‘nalishlarida qiyosiy afzalliklar tahlil qilinadi.

Mahallalarni rivojlantirish bo‘yicha individual dasturlar ishlab chiqilmoqda. Amaliyot ko‘rsatganidek, hatto eng zaif hududlarda ham suv va elektr energiyasi bilan barqaror ta’minlash, minimal infratuzilma va bozorlar bilan kooperatsiyani tashkil qilish aholi daromadlarini jiddiy oshirishi mumkin.

Bu yil hududiy manzilli rivojlanish shu tariqa belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy vositasiga aylanmoqda, bu Prezidentimiz tomonidan aniq ko‘rsatib o‘tiladi.

[Davomi 3-betda](#)

2026-yil 4-fevral, 23-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

TINCHLIK VA BARQARORLIKNI TA'MINLAMAY, FAROVONLIKKA ERISHIB BO'LMAYDI

Islomobodda Prezident

Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va mamlakat xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag'ishlangan davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirida O'zbekiston tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari Bahromjon A'loyev, mamlakatimiz elchisi Alisher To'xtayev, Pokistonning yetakchi tahlil markazlari, ijtimoiy-siyosiy doiralari vakillari, ekspertlar, siyosatshunoslar, professorlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

— O'zbekiston so'nggi yillarda erishgan barcha yutuqlar, avvalo, Prezidentimizning aniq strategik qarashi, qat'iy siyosiy irodasi hamda tashqi siyosatni mamlakatimiz uzoq muddatli milliy rivojlanish manfaatlari bilan uzviy va samarali uyg'unlashtirishga qaratilgan izchil siyosati natijasidir, — dedi O'zbekiston tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari Bahromjon A'loyev. — Shu ma'noda, O'zbekistonning o'z istiqboliga, mintaqaviy va global hamkorlikka yondashuvlarida davlatimiz rahbarining konseptual chiqishlari, chuqur tahlilga asoslangan doktrinal qarashlari va islohotlarning strategik mantig'ini belgilab berruvchi g'oyalari hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasi yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatni yangi sifat bosqichiga olib chiqish va taraqqiyotda ulkan marralarni ochishga qaratilgan, strategik ahamiyatga ega, konseptual va dasturiy hujjat sifatida namoyon bo'ldi.

Davra suhbatida ishtirokchilar so'nggi 7-8 yilda O'zbekistonda barcha sohada amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar bevosita Prezident Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi, uzoqni ko'ra bilishga asoslangan strategik yondashuvi hamda davlat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan izchil rahbarligi natijasi ekanini alohida ta'kidladi.

Pokistonlik siyosiy doiralari va ekspertlar fikricha, Shavkat Mirziyoyev yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasining asosiy tashabbuskori va arxitektori, shuningdek, mamlakatni chuqur transformatsiya yo'lidan olib o'tib, ochiq, raqobatbardosh hamda barqaror rivojlanayotgan davlatga aylantirishga qaratilgan islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchidir.

Ochiq va samimiy muloqot shaklida o'tkazilgan davra suhbatida ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasining urdu tilidagi nashri tarqatildi.



Sayed Xalid Amir JAFRIY, Janubiy Osiyo va xalqaro tadqiqotlar tahlil markazi direktori:

— O'zbekiston Prezidentining Oliy Majlis va mamlakat xalqiga Murojaatnomasida xavfsizlik, iqtisodiy modernizatsiya va mintaqaviy hamkorlik barqaror rivojlanishning yagona tizimini qanday shakllantirayotgani haqida aniq tahlillar keltirilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida nisbatan qisqa davrda O'zbekiston jamiyat va iqtisodiy hayotning asosiy sohalarini qamrab olgan chuqur transformatsiya yo'lini bosib o'tdi.

Ekspertlar va kuzatuvchilar uchun islohotlar natijalari tanlangan yo'lning samaradorligini yaqqol tasdiqlab, mintaqadagi muvaffaqiyatli transformatsiyaning yorqin namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Murojaatnomada xavfsizlik mavzusi alohida o'rin tutdi va u adolati ravishda taraqqiyotning poydevori sifatida baholandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ma'ruzasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlamay, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin emasligini alohida ta'kidladi.

O'zbekistonning pragmatik mintaqaviy siyosati natijasida Markaziy Osiyoning geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Yaxshi qo'shnihilik siyosatining izchil yo'lga qo'yilishi va o'zaro ishonchning tiklanishi mintaqaviy muammolarni yechishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Toshkent esa SHHT, BMT va mintaqa yetakchilari Maslahat uchrashuvlari doirasida muloqot va ko'p tomonlama hamkorlikning asosiy maydoni sifatida mustahkam o'rin egalladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Prezidentining Murojaatnomasi o'zaro bog'liq va umumiy rivojlanish strategiyasini aks ettiradi.

Rima SHAUKAT, Mintaqaviy tadqiqotlar instituti departamenti rahbari:

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va mamlakat xalqiga Murojaatnomasi mazmunan inson manfaatlarga, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rini mustahkamlashga qaratilgan.

O'tgan yili aprelda O'zbekistonga safarim doirasida yurtingizda xotin-qizlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etayotganiga, turli sohalar, xususan, qishloq xo'jaligidan tortib, yuqori texnologiyali transport tizimi va davlat boshqaruvigacha bo'lgan yo'nalishlarda samarali mehnat qilayotganiga guvoh bo'ldim. Shuningdek, Prezident tashabbusi doirasida ta'lim, sog'liqni saqlash, tadbirkorlik, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, uy mehnati va kichik biznesni rag'batlantirish hamda gender tenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgani tahsinga sazovor.



O'zbekistonda mahalla instituti jamiyat hayotining muhim tayanchi sifatida davlat siyosatining markazidan o'rin olgan. Bu, o'z navbatida, joylarda aholi bilan bevosita ishlash, ijtimoiy masalalarni barvaqt aniqlash va hal etishga xizmat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'ra bilishga asoslangan siyosati mamlakat taraqqiyoti faqat yuqori darajadagi qarorlar orqali emas, balki eng quyi bo'g'in — jamiyatning ildizi bo'lgan mahalla darajasida amalga oshirilishi lozim degan tamoyilga tayanmoqda.

Adam SAUD, Bahriya universiteti professori:

— Jamiyat taraqqiyotida mahallaning o'rni begiyos. Mahalla mustahkam bo'lsa, jamiyat va davlat ham barqaror rivojlanadi.

O'zbekistonda aholining qariyb yarmini xotin-qizlar tashkil etishini inobatga olgan holda ularni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatida ustuvor vazifa ekanini ta'kidlamochim. Ayniqsa, parlament tarkibida xotin-qizlar ulushi yuqori ekanini gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasi sifatida baholayman.

Murojaatnomada yoshlar va xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimini maktabgacha ta'limdan oliy ta'lim va kasbiy tayyorgarlikkacha takomillashtirish, oilalarni ijtimoiy himoya qilish, maishiy zo'ravonlikka qarshi qonunchilik ijrosini ta'minlash masalalariga alohida o'rin berilgan. Ekstremizm, g'iyohvandlik va korrupsiya kabi illatlarga qarshi profilaktikaga asoslangan yondashuv jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan.

Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarga qarshi kurash, jumladan, Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash hamda "yashil" moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan. O'zbekistonda qabul qilinayotgan qarorlar nafaqat hujjat darajasida, balki joylarda aniq ijro orqali hayotga tatbiq etilmoqda.

“Dunyo” AA
Islomobod shahri

O'ZBEKISTON – POKISTON: MINTAQAVIY BOG'LIQLIK, O'ZARO MANFAAT VA IZCHIL TARAQQIYOT STRATEGIYASI

Boshlanishi 1-betda

Bugun jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlari tizimi chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Savdo yo'laklari qayta shakllanmoqda, energetika xavfsizligi va oziq-ovqat ta'minoti masalalari birinchi o'ringa chiqmoqda. Iqlim o'zgarishi esa davlatlardan yakka harakat emas, balki hamkorlikni talab qilayotgan global chaqiriqqa aylanmoqda.

Jahon banki hisob-kitoblari ko'ra, so'nggi besh yilda global logistika xarajati o'rtacha 25-30 foiz oshgan. Bu esa dengizga chiqish imkoniyati cheklangan davlatlar uchun yangi transport yo'laklarini izlashni strategik zarurarga aylantirdi.

Ana shunday sharoitda O'zbekiston tashqi siyosati ochiqchilik, pragmatizm va o'zaro manfaat tamoyillariga asoslanib, yaqin va qo'shni mintaqalar bilan bog'liqlikni mustahkamlashni strategik ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadi atrofimizda tinch, barqaror va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq makonni shakllantirishdir.

Pokiston aynan shu strategik mantiqiy zanjirga muhim o'rin tutadi. Geografik joylashuvi, katta ichki bozori va port infratuzilmasiga egaligi bilan u O'zbekiston uchun Janubiy Osiyoga chiqishda ishonchli hamkor sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston — Pokiston munosabatlarning ishtiroki asosi o'zaro hamkorlik, suverenitet va ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillariga tayanadi. Bu munosabatlar faqat ikki davlat manfaatlari bilan cheklanib qolmay, butun mintaqaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omilga aylanmoqda.

Afg'oniston masalasi ham hamkorlikning eng muhim sinov nuqtalaridan. O'zbekiston va Pokiston bu mamlakatni xavf manbai emas, balki iqtisodiy integratsiya orqali barqarorlikka olib chiqish mumkin bo'lgan hudud sifatida ko'radi. Bu yondashuv yopiqchilik siyosati emas, balki rivojlanishga qaratilgan pragmatik siyosatdir.

Davlatimiz rahbari BMT minbaridan “Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb etmasdan turib, barqaror tinchlikka erishib bo'lmaydi”, degandi. Bu pozitsiya O'zbekistonning tinchlik, xavfsizlik va samarali institutlarga qaratilgan milliy ustuvor maqsadlari bilan to'liq uyg'un.

Hozir O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi tovar aylanmasi hali mavjud salohiyatga to'liq javob bermaydi. Biroq Jahon banki tahlillariga ko'ra, transport xarajati kamaygan taqdirda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 2-3 barobargacha oshishi mumkin.



Elyorjon SAMINOV, Barqaror rivojlanish markazi direktori

Iqtisodiy nuqtayi nazardan qaraganda, Pokiston O'zbekiston uchun faqat yangi bozor emas, balki Janubiy Osiyo iqtisodiy makoniga ochiladigan eshikdir. 240 milliondan ortiq nufusga ega ushbu davlat O'zbekiston sanoati uchun ulkan iste'mol bozorini taqdim etadi.

Ayniqsa, tayyor to'qimachilik mahsulotlari, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, farmatsevtika va kimyo sanoati sohalarida hamkorlik qilish yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkonini beradi. Bu sohalarida qo'shma korxonalar tashkil etish minglab yangi ish o'rinlari ochish, eksport hajmini oshirish, texnologik almashinuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Zero, Prezidentimiz aytganidek, iqtisodiy hamkorlik xalq farovonligini oshirishga xizmat qilmasa, o'z mazmunini yo'qotadi.

O'zbekiston tashqi savdosidagi asosiy cheklavlardan biri dengiz portlariga chiqish imkoniyatining yo'qligidir. Bu logistika xarajatini oshiradi, eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Xalqaro ekspertlarning ma'lumotiga ko'ra, transport yo'laklari kiritilgan har bir dollar sarmoya o'rtacha 4 dollarlik iqtisodiy samara beradi. Transafg'on temir yo'li yo'nalishlari ishga tushirilsa, O'zbekistonning dengiz portlariga chiqish masofasi 30-40 foiz qisqaradi, yuk tashish muddati bir necha haftadan 10-12 kungacha kamayadi. Bu esa mamlakat eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Pokiston portlari orqali Janubiy Osiyo va Hind okeani bozorlariga chiqish imkoniyati esa vaziyatni tubdan o'zgartiradi. Transafg'on temir yo'li va avtomobil yo'laklari ishga tushirilsa, yuk tashish muddati keskin qisqaradi, transport xarajati kamayadi. O'zbekiston

tranzit davlat sifatida yangi iqtisodiy mavqe kasb etadi. Prezidentimizning “Transport kommunikatsiyalari iqtisodiy taraqqiyot bilan birga tinchlikni ham mustahkamlaydi” degan fikri bu yo'nalishning strategik ahamiyatini ochib beradi.

Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib Markaziy va Janubiy Osiyoda energiyaga talab hozirgi ko'rsatkichlarga nisbatan 30 foizdan ortiq o'sadi. Shu bois, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish strategik zaruratga aylanmoqda.

Iqlim o'zgarishi, suv resurslarining qisqarishi va energiyaga talabning o'sishi O'zbekiston va Pokistonni o'xshash muammolar bilan yuzmayuq qilmoqda. Bu muammolarni yakka tartibda hal etishning imkoniyati yo'q. Ular mintaqaviy hamkorlikni talab qiladi.

O'zbekiston so'nggi yillarda “yashil” energetika sohasida yirik loyihalarni boshladi. Pokiston esa quyosh va shamol energetikasida amaliy tajribaga ega. Qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligi va “yashil” iqtisodiyot sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish energetika xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Importga qaramlikni kamaytiradi, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Siyosiy kelishuvlar va iqtisodiy shartnomalar muhim. Ammo munosabatlarni uzoq muddatli qiladigan eng asosiy omil insonlar o'rtasidagi aloqalardir. BMT Taraqqiyot dasturi hisobotiga ko'ra, ta'lim va inson kapitaliga kiritilgan sarmoya uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning 50 foizdan ortiq qismini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik O'zbekiston — Pokiston munosabatlarning aynan shu insoniy poydevorini mustahkamlaydi.

Talabalar almashinuvi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, madaniy forumlar va sayyohlar oqimining oshishi ikki xalq o'rtasidagi o'zaro ishonchni chuqurlashtiradi. Bu esa strategik sheriklikni siyosiy sikllarga bog'liq bo'lmagan barqaror munosabatlarga aylantiradi.

Umuman olganda, Prezidentimizning Pokistonga rasmiy tashrifi ikki davlat munosabatlari navbatdagi diplomatik voqea emas, balki Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida barqaror, o'zaro bog'liq va taraqqiy etgan makonni shakllantirishga qaratilgan qat'iy siyosiy irodaning ifodasidir. Bu tashrif iqtisodiy o'sish, transport bog'liqligi, energetika xavfsizligi va inson kapitali rivojini uyg'unlashtirgan holda O'zbekistonning milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.



Iftixor

Boshlanishi 1-betda

Mazkur turnirning “Masters” guruhida dunyoning qator supergrossmeysterlari bilan dona surgan yurtdoshlarimiz tom ma'noda tarixiy natijalar qayd etdi. Nodirbek Abdusattorov 9 ochko jamg'argan holda musobaqa g'olibiga aylanib, bunday natijani qo'lga kiritgan ilk o'zbek shaxmatchisi bo'ldi. Ushbu musobaqada debut qilgan Javohir Sindorov esa 8,5 ochko bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Amaldagi shaxmat toji egasi Dommaraju Gukesh, dunyoning to'rtinchi

TATA
STEEL
CHESS
TOURNAMENT
2026

raqamli shaxmatchisi Vinsent Keymer, shuningdek, Rameshbabu Praggnanandha, Anish Giri kabi yulduzli tarkibiga ega turnir yakunlariga ko'ra, onlayn reyting hisobida Abdusattorov o'z ko'rsatkichini 19,5 punktga oshirib, 2770 reyting bilan kuchli beshlikka ko'tarildi. Sindorov esa 19,4 qo'shimcha ochko jamg'arib, 2745 reyting bilan dunyo reytingida 11-o'ringa chiqdi.

Shaxmatchilarimiz Toshkent xalqaro aeroportida keng jamoatchilik, Sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi mutasaddilari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida tantanalilik bilan o'tirildi.

Albatta, xalqimiz turli sport musobaqalaridagi zafarli odimlarga o'rganib qolgan, mazkur g'alabalarni navbatdagi yuqori natijalardan biri sifatida o'rtaqcha e'tibor va emosiyalarisiz kuzatadiganlar ham topilishi tabiiy. Biroq unutmassizlik lozim, vatanimizda shaxmatga tarixan oddiy o'yin emas, aksincha, fikrni charxlovchi mashq, taxtadagi yurishlar hayotiy qarorlar bilan o'zaro tutash, strategik va mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi vosita sifatida alohida diqqat qaratib kelingan. Masalan, Amir Temur davrida muvozanat katta ahamiyat kasb etib, markaziy kuchni mustahkamlash bilan birga yordamchi usullarni o'z o'rnida saqlash davlat barqarorligining asosiy sharti bo'lgan. Shaxmat taxtasidagi figuralar o'rtasidagi munosabat ham ayni mantiqqa mos keladi. Shu tariqa u tarixiy tafakkur maktabining ajralmas qismiga aylangan: insonni sabrga, mas'uliyatga va vaziyatni bir butun holda ko'ra bilish, baholashga o'rgatgan.

Bu an'ana vatanimiz madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan va keyingi avlodlar tafakkurida yashab kelmoqda. Shu ma'noda, bugungi g'alabalar



BUYUK SHAXMAT TAXTASI: TARIXIY XOTIRA, GLOBAL RAQOBAT VA CHEMAIONLAR AVLODI

tafakkur, strategiya va kuch tushunchalarini shaxmat maydoni, tarixiy xotira va bugungi global raqobat manzarasi bilan bog'lash imkonini beradi.

Shaxmat taxtasida amalga oshirilgan yurishlar zamonaviy dunyoda qaror qabul qilish jarayonlari bilan mushtarak xususiyatga ega. Zero, yangi zamon siyosati tobora ochiq to'qnashuvlardan ko'ra hisob-kitobga, vaziyatni oldindan ko'ra bilishga va muvozanatni saqlashga tayana boshladi. Shu sababli siyosiy maydon ko'p hollarda buyuk shaxmat taxtasiga qiyoslanadi. Hech ikkilanmay shaxmat maydonida erishilgan bugungi yutuqlarimizni ana shu jarayonning ramziy ko'rinishi o'laroq qabul qilishimiz mumkin. Negaki, jamiyatda muvaffaqiyat va ustunlikka oid tasavvurlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Muayyan davrda kuchga tayanadigan harakat, jismoniy qudrat va tezkor natija asosiy mezon sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi sharoitda vaziyatni anglash, fikrni tartibga solish va uzoq muddatli natijaga erishish qobiliyati dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'zgarish esa asta-sekinlik bilan e'tibor, rag'bat va imkoniyatlar vositasida kundalik qarashlar ichida shakllanadi. Shaxmat, hech shubhasiz, ana shu jarayonni eng aniq ko'rsatib beradigan maydonlardan biridir. Bu o'yinda ustunlik fikrning aniqligi, rejaning izchilligi va sabr orqali yuzaga chiqadi.

Yoshlar ongida ham muvaffaqiyatga munosabat shu yo'sinda o'zgarib bormoqda. Tez tanilishdan ko'ra tayyorgarlik, muntazam mehnat va ichki barqarorlikka asoslangan yo'l ishonchliroq ekanini anglab yetapmiz. Davlat miqyosida shaxmatga qaratilayotgan e'tibor aynan shu ijtimoiy ehtiyoj bilan uyg'unlashadi. So'nggi yillarda shaxmatni ta'lim tizimiga kiritish, ixtisoslashgan maktab va markazlar faoliyatini kengaytirish, yoshlar

o'rtasida musobaqalar tizimini shakllantirish orqali intellektual tayyorgarlikka ustuvorlik berilayotganining boisi ham shu.

“Tata Steel Chess” musobaqasining yangi chempioni, xalqaro grossmeyster Nodirbek Abdusattorov bu borada fikr yuritarkan, “Bugungi muvaffaqiyatlarimiz zahirida bevosita davlatimiz rahbarining qo'llab-quvvatlovi, alohida e'tibori turibdi. Keyingi yillarda shaxmat dunyosida o'zbek shaxmatchilari bir butun avlod sifatida ham individual, ham jamoaviy musobaqalarda g'oliblik uchun asosiy da'vogarlar safida e'tirof etilishi bejiz emas. 2022-yil Hindiston mezbonligida o'tgan 44-shaxmat olimpiadasida shohsupaning eng yuqorisidan joy olib, musobaqa oldin medallarini yurtimizda olib kelganimiz, jumladan, kechagi yutug'imiz ham bu e'tiroflarning qanchalik asosli ekanini tasdiqlaydi. Oldimizda esa rejalarni ko'p. Joriy yil nufuzli musobaqalarga boy va ularning har birida g'oliblik uchun astoydil dona suramiz. Eng muhimi, yurtimiz mezbonlik qiladigan navbatdagi shaxmat olimpiadasida ham chempion bo'lmoqchimiz”, deya ta'kidladi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining “2026-yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, ushbu musobaqani yuqori darajada tashkil etish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Biz esa shaxmatchilarimizdan nafaqat olimpiadada, balki ular ishtirokidagi har bir musobaqadan g'alabali yurishlarni kutib qolaveramiz. Axir ularning o'zi allaqachon bizni bunga o'rgatib qo'ydi-ku, shunday emasmi?

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Islohot odimlari

IJTIMOIY SIYOSAT
EVOLYUTSIYASINING BURILISH NUQTASI

“

BIRINCHI BOSQICHDAYOQ LOYIHA 60 TA DOIMIIY VA 400 TA MAVSUMIY ISH O‘RNINI TA’MINLAYDI. 200 TA XONADON BILAN HAMKORLIK ORQALI QARIYB 700 KISHI IQTISODIY FAOLIYATGA JALB QILINADI, OILALARNING DAROMADI YILIGA O‘RTACHA 150-200 MILLION SO‘MGA OSHADI.



Xurshid ASADOV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va
islohotlar markazi direktori
o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Kengayayotgan moliyaviy
imkoniyatlar

Yangi modelda hududiy siyosat ustuvorliklarini qayta ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilgan. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “og‘ir” tuman va mahallalardagi aholi va tadbirkorlar, birinchi gema, soliq imtiyozlarining kengaytirilishini emas, balki yo‘llar, suv va elektr energiyasi ta’minotining yaxshilanishini kutmoqda.

Resurslarni ayrim muammoli hududlarda to‘plash infratuzilma investitsiyalarini umumiy budjetdan moliyalashdan manzilli ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir vositasiga aylantirish imkonini beradi. 2026-yilda hududiy infratuzilmani rivojlantirishga 20 trillion so‘m yo‘natiladi, shundan 12 trillion so‘mi “og‘ir” tuman va mahallalar uchun mo‘ljallangan.

Respublika budjetdan mahalliy budjetlarga qaytariladigan mablag‘lar 2 baravar ko‘paytirilmoqda. Hokimliklarga o‘z budjetlaridan tashqari yana 4,2 trillion so‘m ajratiladi, bu ularning moliyaviy imkoniyatini kengaytiradi va aniq natijalarga erishish uchun mas’uliyatini oshiradi. Resurslarni qo‘shimcha taqsimlash doirasida viloyat hokimliklari har bir “og‘ir” tumanga 10 milliard so‘m va 903 ta “og‘ir” mahallaning har biriga bir milliard so‘mdan yo‘natiladi. Qo‘shimcha ravishda ushbu toifadagi har bir tumanga 50 milliard so‘m va mahallaga 2 milliard so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan. Umuman, tuman hokimliklari va mahalliy kengashlar faqat muammoli hududlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qariyb 4 trillion so‘m oladi.

“Og‘ir” toifadagi tuman va mahallalarning barqaror energiya ta’minoti ushbu modelning asosiy elementidir. Bunda joriy yondashuvdan prinsipial farq infratuzilma xarajatlarini bir martalik budjet xarajatidan uzoq muddatli iqtisodiy aktivga aylantirishdan iborat.

2026-yilda “og‘ir” toifadagi mahallalarning har birida taxminan 110 million dollarlik 300 kilovatt quvvatga ega kichik quyosh elektr stansiyalari qurish rejalashtirilgan. Stansiyalar mahallalarga beg‘araz berilib, mahalliy energetika aktivni shakllantiriladi. “Yashil” elektr energiyasini ishlab chiqarish hisobidan har bir mahallada yiliga 400-500 million so‘m barqaror qo‘shimcha daromad manbai yaratiladi.

Ushbu mablag‘ni uy-joy fondini energiya tejamlor ta’minlash, kommunal xizmatlar xarajatlarini kamaytirish va turmush sifatini yaxshilashga yo‘natirish ko‘zda tutilgan. Quyosh stansiyalarini ekspluatatsiya qilish ishlariga kam ta’minlangan oilalar a’zolari jalb qilinadi, bu esa bir vaqtning o‘zida bandlik va infratuzilma barqarorligi masalalarini hal qilish imkonini beradi. Xuddi shunday yechimlarni ixtisoslashuv darajasi yuqori bo‘lgan yana mingta ilg‘or mahallada amalga oshiriladi. Bu yerda kichik quyosh elektr stansiyalari 7 yillik muddatga foizsiz lizing asosida beriladi.

Eng ehtiyojmand xonadonlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratiladi. Birinchi guruh nogironligi bo‘lgan va mehnatga layoqatli oila a’zolari bo‘lmagan 6700 ta oilani manzilli o‘rganish, energiya tejamlor uy-joylarga ehtiyojini aniqlash va “yashil” ta’minlash ishlarini boshlash topshirildi.

Pirovardida bularning barchasi hududiy va energetik barqarorlik modelini shakllantiradi. Hukumat organlarining samaradorligini baholash esa ommaviy ravishda amalga oshiriladi va natijaga qaratilgan boshqaruvga o‘tishni mustahkamlaydi.

Mahallalarning qiyosiy
ustunliklari

Prezidentimiz tomonidan 2026-yil uchun asosiy ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlar aniq belgilab berildi. Qariyb 1 million kishini doimiy ish bilan ta’minlash, 181 mingta oilani

kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 baravar ko‘paytirib, 3,5 mingtaga yetkazish, shuningdek, ishsizlik darajasini 4,5 foizgacha kamaytirish shular jumlasidan.

Ushbu maqsadlarga erishish muayyan tuman va mahallalarning sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasidagi qiyosiy ustunliklaridan kelib chiqqan holda ko‘zda tutilgan. Bunday yondashuv resurslarni aholi daromadlari va bandlikka eng ko‘p multiplikativ ta’sir ko‘rsatadigan joylarda jamlash imkonini beradi.

Prezidentimiz mahallalarning joylashuvi va ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda qiyosiy ustunliklardan foydalanishga misol tariqasida bir qator afzalliklarga ega bo‘lgan Furqat tumanini keltirib o‘tdi.

Furqat tumanida 34 ta mahalla bor, ushbu hududda 7,6 mingga yaqin kam ta’minlangan aholi va qariyb 3 ming ishsiz fuqaro istiqomat qiladi. 18 ta mahallada kambag‘allik va ishsizlik darajasi yuqoriligi qolmoqda. Tuman iqtisodiyotida sanoat, xizmatlar va qurilish sohalari ulushi 2 foizga ham yetmaydi. Zamonaviy bozorlar, savdo markazlari, bog‘lar va dam olish maskanlari yo‘qligi aholini har kuni qo‘shni hududlarga chiqishga majbur qiladi.

Shu bilan birga, mahallalarning geografik joylashuvi va ixtisoslashuvi tahlili ko‘rsatdiki, tuman ish o‘rinlarini yaratish va daromadni o‘stirishni tezlashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan uchta asosiy qiyosiy afzallikka ega.

Birinchi ustunlik — iqtisodiy jihatdan faol qo‘shni hududlar bilan kooperatsiya.

Bugungi kunda Furqat tumanining taxminan 1,5 ming aholisi Qo‘qon shahri va erkin iqtisodiy zonadagi korxonalarda ish bilan ta’minlangan. Shu bilan birga, qo‘g‘onlik tadbirkorlarga shahar yaqinida ishlab chiqarishni kengaytirish uchun asosiy infratuzilmaga ega tayyor maydonchalar yetishmaydi.

Amaliyot bunday kooperatsiya yuqori salohiyatga ega bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Masalan, o‘tgan yili qo‘g‘onlik tadbirkorlar Furqat tumanida korxonalar ochib, 350 ta ish o‘rni yaratdi. Mos maydonlar va infratuzilma taqdim etilsa, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yana beshta korxona qariyb 400 ta ish o‘rni yaratiladigan o‘z filiallarini ochishga tayyor. Bundan tashqari, Tuncha mahallasida 13 gektar maydonda sanoat zonasi yaratilsa, investorlar 100 million dollargacha bo‘lgan loyihalarni amalga oshirishga tayyor ekanini bildirgan, bu esa qariyb 2 mingta ish o‘rni demakdir.

Ikkinchi ustunlik — yaqin atrofda joylashgan mahallalarning chuqur ixtisoslashuvi.



Xususan, “Eski”, “Ingichka” va “Qo‘qonboy — 2” MFYlari an’anaviy ravishda yog‘ochni qayta ishlashga ixtisoslashgan. Eski mahallasida ikki gektar bo‘sh yer maydonida yog‘ochni qayta ishlash klasterini shakllantirish qariyb 150 ta xonadonga kichik hunarmandlik ishlab chiqarishdan sanoat formatiga o‘tish va qo‘shimcha 500 ga yaqin ish o‘rni yaratish imkonini beradi. Bu yerda qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish emas, balki mavjud ko‘nikmalar kooperatsiyasi asosiy omil bo‘lmoqda.

Uchinchi ustunlik — mahallalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar qo‘shilgan qiymatining o‘sishi. Tumanda 42 ta chorvachilik xo‘jaligi va xonadoni mavjud, ularda qariyb 65 ming bosh qoramol boqiladi. Lekin qo‘shni va sutni qayta ishlash bo‘yicha quvvatlar mavjud emas va bu aholining daromad olish imkoniyatini cheklaydi.

Bo‘sh turgan binolarda qayta ishlash majmuasini ishga tushirish va bir vaqtning o‘zida beshta chekka mahalladagi kam ta’minlangan 300 ta oilaga chorva mollari sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berish (qariyb 10 milliard so‘m) 1,5 ming kishini barqaror bandlikka jalb qilish va oilalar daromadini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.



Furqat tumani keysida ko‘rinib turganidek, hududlarni qiyosiy ustunliklar orqali tahlil qilganda hatto iqtisodiy jihatdan zaif hududlar ham katta yashirin salohiyatga ega ekanini ko‘rinadi. Uni ro‘yobga chiqarishning asosiy sharti har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlariga boshqaruvning chuqur singishi va mahallani rivojlantirishga loyihaviy yondashuvdir.

Muammoli hududlarni rivojlantirishga differensiallashgan yondashuv modelini shakllantirish doirasida, eng avvalo, “og‘ir” toifadagi tuman va mahallalarda aholi bandligi va daromadini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Ixtisoslashuvni chuqurlashtirish

Asosiy e’tibor mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirishga qaratiladi, chunki chuqur ixtisoslashuvga ega mahallalarda farovonlik sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Tajriba ko‘rsatdiki, barqaror ixtisoslashuvga ega mahallalarda farovonlik sezilarli darajada yuqori, ijtimoiy yordam oluvchilar soni esa ikki baravar past bo‘ladi.

Pillachilik — daromadni
oshirish manbai

Yangi model doirasida kam ta’minlangan oilalar uchun barqaror daromad manbai sifatida an’anaviy, ammo qadriga yetilmagan faoliyat turlaridan foydalanishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Bunday yo‘nalishlardan biri ipakchilikni rivojlantirish. Bu institutsional hamrohlik va kooperatsiya sharoitida kambag‘allikni qisqartirish vositasiga aylanishi mumkin.

Joriy yilda tut plantatsiyalarini yaratish uchun 2 ming gektar o‘rmon yerlari ajratiladi. Kam ta’minlangan to‘rt ming oilaga tutzorlar barpo etish uchun 50 sotix yer maydoni bepul foydalanish sharti bilan 10 yil muddatga beriladi. Oilalar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun egatardlar bir vaqtning o‘zida foydalanish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa ilk bosqichdayoq daromad manbaini diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi.

Loyiha kam ta’minlangan oilalarni ishtirokida pillachilik kooperativlarini tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Bunday kooperativlarning ustav fondini shakllantirish uchun har bir oilaga 4 million so‘m miqdorida subsidiya ajratiladi. Bundan tashqari, har bir hududda texnologik hamrohlik, o‘qitish va ishlab chiqarish sifatini nazorat qilishni ta’minlaydigan pillachilik sohasi mutaxassislari va agronomlarni jalb qilish ko‘zda tutilgan. Uy sharoitida pilla yetishtirish bilan shug‘ullanadigan oilalarga o‘z imoratlarini jihozlash va uskunalar sotib olish uchun foizsiz ssudalar taqdim etiladi.

Ushbu modelni amalga oshirish maqsadida 4 mingta oila uchun yiliga 50-60 million so‘m miqdorida barqaror qo‘shimcha daromad manbai shakllantirilmoqda. Kooperativ formatni mashtablash va uy xo‘jaliklarini qo‘shilgan qiymat zanjirining tegishli bosqichlariga jalb qilish hisobiga 30-40 ming oila o‘z daromadini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bu ularning kambag‘allikdan chiqishi uchun real poydevor yaratadi.

Kichik va o‘rta biznesni
rivojlantirish

2026-yilda mahallalarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so‘m kredit resurslari ko‘zda tutilgan (o‘tgan yili 130 trillion so‘m). Shu bilan birga, banklarga tadbirkorlikni moliyalashtirishni kuchaytirish vazifasi yuqulatildi. Tashqi manbalardan 6 milliard dollar jalb qilish rejalashtirilgan bo‘lib, mahalla loyihalariga yo‘natiriladigan umumiy mablag‘ miqdori 8 milliard dollarga yetkazilishi kerak.

Nafaqat kreditlarni taqsimlash ko‘lami, balki tamoyili ham mohiyatan o‘zgarimoqda. “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi doirasida barcha tuman va shaharlar uchun 17,5 foiz stavka bo‘yicha teng shartlarda kreditlar berilgan model hududiy differensiallashga o‘rinni bo‘shatib berdi, shu jumladan, 37 ta “og‘ir” tuman uchun stavka 12 foizgacha kamaytirilmoqda. Bu harakat kreditlashni muammoli hududlarni rivojlantirishni tezlashtirish vositasiga aylantiradi.

Shu bilan birga, dastur limitlari va maqsadli yo‘nalishlari kengaytirilmoqda. Barcha tumanlarda imtiyozli kreditning maksimal miqdori 1,5 baravar — 33 million so‘mdan 50 million so‘mgacha oshirilmoqda. Ushbu qarorni resursli ta’minlash uchun rejadagi 3,6 trillion so‘mga yana 2 trillion so‘m qo‘shilmoqda.



“Oilaviy tadbirkorlik” dasturi bo‘yicha muammoli kreditlarni undirish uchun yangi rag‘batlantirish mexanizmi joriy etilmoqda. Bunda hokim yordamchisi 2022-yilgacha berilgan kreditlarning muammoli qismi qaytarilganda, qaytarilgan summaning 20 foizini, 2025-yilgacha berilgan muammoli kreditlar bo‘yicha esa bonus tariqasida summaning 10 foizini oladi.

Umuman, 2026-yilgi kredit siyosati manzilli rivojlanish mexanizmi, kreditni bandlik, daromad va mahalliy o‘ziga aylantirish sifatida rasmiylashtirilmoqda.

Tizim boshqaruvida
institutsional o‘zgarishlar

Mahallani rivojlantirish bilan bog‘liq barcha boshqaruv bo‘g‘inlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun qator institutsional o‘zgarishlar ko‘zda tutilgan.

Endi mahallalardagi ishlar ma’muriy vositachilik xususiyatiga ega bo‘lmaydi va aniq loyihalar atrofida tuziladi. Ushbu modelda hokim yordamchisi loyiha qarorlarini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan hududiy rivojlanish menejeri vazifasini bajaradi. Loyihalarni boshqarish yaxlitligini ta’minlash uchun ko‘p bosqichli muvofiqlashtirish joriy etilmoqda. Hokim yordamchilari tashabbuslariga viloyat bankirlari biriktirilgan, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari tezkor hamrohlik qiladi, “Islohotlar shtabi” esa idoralararo qarorlarni talab qiladigan masalalarni o‘z nazoratiga oladi.

Fevral oyidan hokim yordamchilarni loyihaviy boshqaruv bo‘yicha o‘qitish tizimi ishga tushiriladi va bu ish “og‘ir” mahallalardan boshlanadi. 1-martgacha har bir tumanda loyihalar portfeli shakllantiriladi va amalga oshiriladi.

Loyihaviy yondashuvga eng yorqin misollardan biri — Quva tumanidagi “Qaqir” MFY. Hokim yordamchisi tashabbusi bilan tadbirkor va niderlandiyalik mutaxassis ishtirokida 8 gektar maydonda to‘liq sikll atirgul yetishtirish markazi tashkil etilmoqda. Loyiha eksportga mo‘ljallangan atirgullarni yetishtirishdan tortib, mahsulotni saqlash, qadoqlash va yetkazib berishga tayyorlanishgacha bo‘lgan barcha ishlab chiqarish jarayonini qamrab oladi.

Markaz yaqin kunlarda ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Birinchi bosqichdayoq loyiha 60 ta doimiy va 400 ta mavsumiy ish o‘rnini ta’minlaydi. 200 ta xonadon bilan hamkorlik orqali qariyb 700 kishi iqtisodiy faoliyatga jalb qilinadi, oilalarning daromadlari yiliga o‘rtacha 150-200 million so‘mga oshadi. Eksport salohiyati yiliga 2 million dollarga, tuman budjetiga qo‘shimcha foyda 3 milliard so‘mga baholanoqda.

Bundan tashqari, markaz negizida o‘quv maydoni shakllantirilmoqda, bu yerda har yili ming kishi zamonaviy gulchilik texnologiyalari bo‘yicha o‘qitiladi.

Loyiha bir vaqtning o‘zida bandlik, daromadni oshirish, eksport va kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq vazifalarni hal qiladi. Aynan shu tashabbuslar mahallalarga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan barqaror iqtisodiy rivojlanishga o‘tish imkonini beradi. Natijada “Qaqir” MFY 2026-yildayoq kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylinishni kutilmoqda.

Ish o‘rinlari yaratish, daromadni oshirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha eng yaxshi ko‘rsatkichlarni namoyish etgan yuzta “og‘ir” mahallaning har biri qo‘shimcha 1 milliard so‘mdan moliyalashtiriladi. Ushbu mahallalardagi hokim yordamchilari Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya va Malayziyada

malaka oshirishi mumkin bo‘ladi. Shu bois, mahallalar bosh rejaralarni ishlab chiqish bo‘yicha ishlar kuchaytirilmoqda. Buning uchun xalqaro ekspertlar jalb qilinib, mahalliy oliy ta’lim muassasalarining salohiyatidan foydalanilmoqda. Arxitektura yo‘nalishida bitiruvchi kurs talabalari “og‘ir” mahallalarni rivojlantirishda ishtirok etishi mumkin bo‘ladi, eng yaxshi loyihalar davlat grantlari bilan rag‘batlantiriladi.

“Mahalla yetitiligi” modeli yangilanmoqda. Ilgari Toshkentda qo‘llanilgan amaliyot barcha tuman va shaharlarda tatbiq etilmoqda. Hokim yordamchisi, ayollar faoli va yoshlar yetakchisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish tuman hokimi tomonidan mahalla raisining tavsiyasiga binoan amalga oshiriladi. Hokimlar zimmasiga bevosita mahallalarda muntazam ravishda sayyor qabullar o‘tkazish, muammolarni joyida hal qilish majburiyatini yuklatiladi.

Umuman, institutsional o‘zgarishlar universal yondashuvdan differentsiatsiyalashgan hududiy siyosatga o‘tishni qayd etadi. “Og‘ir” toifadagi tuman va mahallalarda 61 mingta oilani kambag‘allikdan chiqarish hamda kambag‘allik va ishsizlik darajasini ikki baravar kamaytirish vazifasi belgilangan. Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman va mahallalarni ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududlarga aylantirish, 96 mingta oilani kambag‘allikdan chiqarish maqsad qilingan.

Resurslarni qayta taqsimlash iqtisodiyot tarkibi bilan asoslangan, xususan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 62 foizi va xizmatlar sohasining 57 foizi tadbirkorlik salohiyati yuqori 50 ta tuman va shaharda joylashgan. Uslarning budjet daromadlari o‘sishi davlat sa’y-harakatlarini muammoli hududlarga qaratahsh imkoniyatini yaratadi.

Buni tushumlar dinamikasida ham ko‘rish mumkin: uch yil oldin ushbu 50 ta hududda mahalliy budjetning qo‘shimcha daromadlari 875 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilda u 8,5 baravar ko‘payib, 7 trillion 400 milliard so‘mga oshishi kutilmoqda. Natijada kambag‘allik va ishsizlik darajasi yuqori “og‘ir” tuman va mahallalarga ko‘proq e’tibor qaratish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, iqtisodiy jihatdan kuchli tuman va shaharlar hokimlaridan ichki o‘shish manbalari hisobiga o‘z salohiyatidan yuqori darajada foydalanish talab qilinadi.

Yangi modelning afzalliklari

Yangi manzilli yondashuvga o‘tish sharoitida “og‘ir” hududlar va loyihaviy boshqaruv ustuvorlik kasb etganda, “mahalla yetitiligi”ning roli obyekтив ravishda kuchayib, u joylarda qaror qabul qilish, qayta aloqa va loyihalarga hamrohlik qilish markaziga aylanib bormoqda.

E’tibor “og‘ir” mahallalar va ehtiyojmand oilalarga qaratilganda, qarorlar muayyan hududdagi bandlik, daromad, qarz yuki va infratuzilmaviy cheklavlarga oid tekshirilgan ma’lumotlarga tayanishi o‘ta muhim. Shu nuqtayi nazaridan, “mahalla yetitiligi” faoliyati amaliyoti uy xo‘jaliklariga yaqinlik kabi muhim tizimni ta’sirli ko‘rsatadi va mahalliy voqelikni bilish manzillilikni aniqligini oshiradi.

Shu tariqa mahalla va hokim yordamchilari instituti endi faqat ijtimoiy vosita bo‘lmay, iqtisodiy siyosat elementiga aylanmoqda. Loyihaviy yondashuv, shaxsiy mas’uliyat va tizimli monitoring joriy etilganidan keyin model kambag‘allikka qarshi kurashni barqaror hududiy rivojlanish mexanizmiga aylantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa

O‘zbekistonning hududiy ijtimoiy siyosati resurslarni an’anaviy qayta taqsimlash doirasidan chiqib, boshqariladigan rivojlanish modeliga o‘tmoqda. Yangi model uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga tayanadi.

Birinchi, infratuzilma resurslarini “og‘ir” tuman va mahallalarda jamlash, uzoq muddatli mahalliy aktivlarni shakllantirish, uy xo‘jaliklari xarajatlarini kamaytirish va energetika barqarorligini oshirish.

Ikkinchi, moliyaviy rag‘batlar, kredit olish imkoniyatlari va qo‘shilgan qiymat zanjirlari bo‘ylab yechimlar bilan ta’minlangan hududlarning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va qiyosiy ustunliklar hisobiga bandlikni kengaytirish.

Uchinchi, boshqaruvning institutsional qayta tuzilishi, bunda loyihaviy yondashuv va bosqichlararo muvofiqlashtirish resurslar, mas’uliyat va o‘lchanadigan natijalarni bog‘laydi.

Hozirgi bosqich rivoji shundan iboratki, manzillilik “og‘ir” hududlarga yo‘natirilgan texnologiyaga aylanmoqda. Kambag‘allikdan chiqish uy xo‘jaligining individual trayektoriyasi sifatida tushuniladi, unda mahalliy sharoit, ko‘nikmalar va infratuzilma hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. “Mahalla yetitiligi” hamda hokim yordamchilari instituti bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida muvofiqlashtirish va qayta aloqani ta’minlaydi.



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi qo'mita raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Kredit bugungi iqtisodiy hayotning ajralmas qismi. Kimdir uy-joy uchun ipoteka oladi, kimdir farzandi ta'limi uchun, kimdir kichik biznesini boshlash uchun bankdan moliyaviy ko'mak so'raydi. Biroq hayotda shunday kutilmagan brulishlar borki, hatto to'lov intizomi yuqori bo'lgan odam ham muayyan muddatga to'lovlarni kechiktirishga majbur bo'lib qoladi.

Ana shunday vaziyatlarda bank mijozga qanday munosabatda bo'lishi kerak? U darhol qarzdorni "muammoli" toifaga kiritadimi? Yoki insonning og'ir holatini hisobga oladimi? Shu savollarga javob sifatida Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 5-dekabrda 31/10-qarori qabul qilinib, tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash hamda ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi rezervlar shakllantirish bo'yicha nizomga muhim o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Bu qaror bir qarashda moliya sohasiga oid texnik hujjatdek tuyulishi mumkin. Aslida esa minglab oilalarning moliyaviy barqarorligi, ijtimoiy himoyasi va kredit madaniyati uchun muhim ahamiyatga ega.

Markaziy bank qarori markazida bir fikr turadi: agar to'lov kechikishiga hayotdagi og'ir vaziyat sabab bo'lsa, birinchi marta to'lov muddati kechiktirilganda kreditning sifati avtomatik tarzda yomonlashmasligi lozim. Bu kredit munosabatlarda insonparvarlik tamoyilining mustahkamlanishi demakdir.

Shu paytgacha ko'p hollarda to'lov jadvali o'zgarishi bilan kredit "qayta ko'rib chiqilgan aktiv" sifatida baholanib, mijozning moliyaviy obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Yangi qaror esa hayotiy haqiqatni inobatga oldi: qarzdorlik har doim ham mas'uliyatsizlik belgisi emas.

Haqiqat shundaki, qarzdorlik har doim ham e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik yoki firibgarlikni bildirmaydi. Ba'zan inson hayotida kutilmagan vaziyatlar bo'ladi. Hatto eng intizomli kishi ham to'lov jadvalini saqlay olmay qolishi ehtimoli bor. Bunga sabab sifatida og'ir kasallik, ishdan bo'shash, oilaviy masala, tabiiy ofat, nogironlik

holati, homiladorlik va tug'uruq ta'tilini keltirish mumkin.

Bu holatlarning barchasi insonning birdan daromadini pasaytiradi, xarajatini oshiradi va moliyaviy rejasini izdan chiqaradi. Ana shunday paytda bank tizimi ham "insoniy omil"ni hisobga olish talab etiladi.

Markaziy bank qarorining mohiyati esa kredit munosabatlarni faqat iqtisodiy emas, ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan ham tartibga solishdir.

Banklarda "aktiv sifati" degani nima? Oddiy qilib aytganda, bank uchun berilgan kredit aktiv hisoblanadi. Chunki bank pulni qaytarib olish orqali daromad qiladi.

Lekin har bir aktivning sifati turlicha: standart aktiv — xavfli past, to'lovlar o'z vaqtida, substandart — xavf belgilari paydo bo'lgan, shubhali — to'lov kechikishlari kuchaygan, umidsiz — qaytarilishi ehtimoli juda past.

Nima uchun bu tasnif muhim? Sababi bank har bir xavfli aktiv uchun zaxira (rezerv) shakllantirishi shart. Ya'ni agar kredit qaytmay qolsa, bank zarar ko'radi. Ana shu zararni oldindan yumshatish uchun bank o'z foydasidan muayyan mablag'ni jamg'arma sifatida ajratadi. Shu — zaxira.

Demak, kreditni "muammoli"ga chiqarish bank uchun ham og'ir. Zaxira ko'payishi kerak. Hisobotda muammo ko'rinadi, kapitalga bosim ortadi, bankning umumiy barqarorligiga xavf paydo bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, Markaziy bank qarori banklar uchun faqat ijtimoiy emas, iqtisodiy jihatdan ham oqilona.

Mazmun bunday: aktiv shartlari qayta ko'rib chiqilgan (restrukturizatsiya qilingan) deb hisoblanadigan holatlar keltiriladi, lekin 338-bandda ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno. Ya'ni oldin kredit to'lov jadvali kechiktirilsa yoki muddati uzaytirilsa, ko'p



hollarda bank tizimida bu "kredit qayta ko'rib chiqildi" deb qabul qilinardi. Bu esa kreditning sifatiga salbiy ta'sir qilar edi.

Endi esa yangi qoidaga ko'ra, agar to'lovni kechiktirish yoki uzaytirish 338-banddagi ijtimoiy-hayotiy sabablar bilan bog'liq bo'lsa, kredit avtomatik ravishda restrukturizatsiya qilingan aktiv sifatida yozilmaydi.

Bu nima degani? Fuqaro bankka murojaat qilib, haqiqiy og'ir holatini isbotlasa, bank unga nisbatan chora ko'rmasligi, kredit "sifati tushib ketmasligi" kerak.

Qaysi hollarda kredit sifati o'zgarmaydi? Qarz oluvchining murojaatiga ko'ra, bank tomonidan kredit shartnomasi davomida to'lovlar birinchi marotaba kechiktirilsa yoki uzaytirilsa, kredit tasnifi o'zgarmaydi va u qayta ko'rib chiqilgan aktiv deb tasniflanmaydi.

Lekin bu "har qanday sabab bilan kechiktirsa bo'laveradi", degani emas. Qat'iy ro'yxat berilgan. Unga qarz oluvchining 2 oydan ortiq mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi, mehnat shartnomasi bekor qilinib, ish qidirayotgan

sifatida ro'yxatga olinishi, qarz oluvchining turmush o'rtog'i (u birgalikda qarz oluvchi yoki kafil bo'lgan) vafot etishi, qarz oluvchining qaramog'ida I yoki II guruh nogironligi bor shaxs paydo bo'lishi yoki soni ortishi, qarz oluvchiga I yoki II guruh nogironligi belgilanishi, tabiiy yoki texnogen favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi, qarz oluvchining homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqishi kiradi. Bu ijtimoiy davlat siyosati nuqtayi nazaridan ham juda muhim.

Daromad 30 foiz kamayishi talabi nega kiritildi? Agar ishdan bo'shash yoki turmush o'rtog' vafoti bilan bog'liq vaziyat bo'lsa, bankka murojaat qilishdan oldingi ikki oy davomida qarz oluvchining o'rta oylilik daromadi oxirgi 12 oylik o'rta daromadga nisbatan kamida 30 foiz kamaygan bo'lishi kerak.

Bu talab ikki tomonlama vazifani bajaradi, ya'ni himoya va tartib o'rtaqidagi muvozanatni saqlaydi. Bir tomondan u adolati "filtr" yaratib, qayta ko'rib chiqilgan aktivni qayta ko'rib chiqilgan aktiv deb tasniflanmaydi.

Lekin bu "har qanday sabab bilan kechiktirsa bo'laveradi", degani emas. Qat'iy ro'yxat berilgan. Unga qarz oluvchining 2 oydan ortiq mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi, mehnat shartnomasi bekor qilinib, ish qidirayotgan

foydalanadi. Ya'ni imtiyoz ehtiyojmandga, imkon haqiqatan qiyinalganga beriladi.

Ikkinchi tomondan esa bu me'yor suiste'molning oldini oladi. Hayot haqiqati shundan iboratki, ba'zan "sabab bor" degan bahonalar ortida moliyaviy qudrat ham yashirin bo'lishi mumkin. "Sabab bor, lekin daromadim yaxshi" qabilidagi holatlar bank tizimida intizomni bo'shashtirib, adolat me'yorlariga putur yetkazishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun ham ushbu talab tizimni himoya qiluvchi qalqon vazifasini o'taydi.

Qisqacha aytganda, davlat va Markaziy bank bu yerda juda muhim tamoyilni ushlab turibdi: "insonni himoya qilamiz, ammo moliyaviy tizimni ham asraymiz".

Shuningdek, qarorda yana bir aniq chegara belgilangan. Yengillikka asos bo'lgan holatlar bankka murojaatdan oldingi 4 oyda sodir bo'lgan bo'lishi shart. Bu talab ham beqiyos ahamiyatga ega.

Chunki hayotda bunday holatlar uchraydi: inson bir yil avval ishdan bo'shagan, keyin qayta ishga kirgan, daromadi tiklangan. Ammo baribir o'tmishdagi holatni sabab qilib ko'rsatib, "ishdan bo'shaganman", deya to'lovni kechiktirishni so'rashi mumkin. Agar bunday amaliyot kengaysa, qarorning gumanitar ruhi suiste'mol qurboniga aylanib qoladi.

Qaror qog'ozdagi imtiyoz emas, real hayotda dolzarb mushkul vaziyatga uchragan inson uchun amaliy qo'llab-quvvatlash mexanizmidir.

Markaziy bank qarorining eng hayotiy nuqtalaridan biri to'lovni kechiktirish muddati aniq belgilab qo'yilganidir. Bu yerda "kechiktirsa bo'laveradi" degan sust me'yor yo'q. Hamma narsa hisob-kitob bilan.

Kasallik, ishdan bo'shash, nogironlik, favqulodda holat kabi vaziyatlarda to'lovni kechiktirish 6 oydan asmasligi belgilandi. Chunki odatda inson shu muddatda o'zini tiklab oladi: yangi ish topiladi, hayot izga tushadi.

Biroq homiladorlik va tug'ish ta'tili boshqa jarayon. Bu yerda ham "bir oy-ikki oy" degan hisob o'tmaydi. Shu bois, mazkur holatda to'lov muddati 10 oygacha uzaytirilishi mumkin.

Qarorning yana bir muhim jihati, insonga ishonch bildirish bilan birga tizimni himoya qilish mexanizmi ham aniq belgilanganidir.

Ha, bank qarz oluvchidan tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilishi mumkin. Faqat talab qilishi emas, tekshirishi shart. Qarorda ochiq aytilyapti: bank ma'lumotlarning haqiqiyliyini aniqlash choralarini ko'rishi lozim.

Bu nima degani? Demak, hech kim og'ir holatni bahona qilib, imtiyozni suiste'mol qilishga haqli emas. Chunki suiste'mol — adolatning dushmani.

Shuning uchun talab ham aniq: kasallik bo'lsa — tibbiy ma'lumotnoma, ishdan bo'shash bo'lsa — rasmiy hujjat, ish qidirilayotgan bo'lsa

— bandlik bo'limi ro'yxati, nogironlik bo'lsa — tasdiqlovchi ma'lumot, ofat bo'lsa — FVV yoki mahalliy hokimlik xabari.

Qarorning 36-bandiga kiritilgan o'zgarish bir qarashda oddiy texnik tartibdek tuyuladi. Ammo amalda u bank tizimining moliyaviy barqarorligiga daxldor muhim qadamdir.

Endi standart aktivlar bo'yicha zaxiralar har oy yakuniga qadar aktiv qaysi valyutada paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha valyutada yoki milliy valyutada shakllantirilishi shart.

Bu nima degani? Bu "raqamlar orasidagi tartib" emas, balki barqarorlik garovi. Chunki valyutada kredit ko'paygani sari bank uchun asosiy savol ham keskinlashadi: riskni qaysi valyutada hisoblaymiz? Zaxirani qaysi pulda to'playmiz? Hisobotda qanday aks ettiramiz?

Yangi tartib bu muammoga aniq javob berdi. Valyuta risklarini hisoblash imkoni kengaydi. Zaxira shakllantirishda aniqlik oshdi. "Dollardagi aktiv — so'mdagi zaxira" masalasidagi itifolir kesildi. Hisobot tizimi ravshanlashdi.

Ayniqsa, tashqi moliyalashtirish, import shartnomalari, valyuta kreditlari kuchayayotgan bugungi sharoitda bu norma banklar uchun "moliyaviy xavfsizlik kamari" vazifasini o'taydi.

Iqtisodchi sifatida bu qarorda ikki ruhni ko'raman. Ikkinchi ham davlat siyosati uchun muhim.

Birinchi — ijtimoiy himoya. Qaror fuqaroga ochiq signal beryapti: hayotda og'ir kunlar bo'ladi. Ammo boshingga tashvish tushganda davlat seni qarzdorlik uchun darhol jazolamaydi. Bu ishonch moliyaviy munosabatlarda tinchlik demakdir. Qaror banklar uchun gumanitar standartni majburiy qilyapti. Insonga ehtiromni qonun darajasiga olib chiqyapti. Bu — ijtimoiy barqarorlik uchun katta kafolat.

Ikkinchi — moliyaviy intizom. Chunki qarorda "kechiktirishga erkinlik" emas, qoidali yengillik bor. Faqat birinchi marta, faqat aniq sabablar bilan, faqat belgilangan muddatda, faqat hujjat asosida, faqat tekshiruv sharti bilan. Shuning uchun bu qaror "kechiktirish madaniyati"ni emas, balki haqiqiy qiyналgan insonni qo'llashni maqsad qilgan.

Agar siz kredit olgan bo'lsangiz, hayotda og'ir holatlar yuz bersa va bankka rasmiy murojaat qilib, hujjat bilan tasdiqlasangiz, sizga yangi imkoniyat ochiladi. Kreditingiz darhol "sifati tushgan" deb baholamassligi va siz avtomatik ravishda "muammoli qarzdor"ga aylanib qolmasligingiz mumkin.

Qisqasi, bu qarorning ruhi bitta insonni qiyin kunda sindimaslik, bank tizimida adolatni mustahkamlash va davlat siyosatida ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishdir.

Bu qaror bank xodimlariga ham aniq signal beradi: kredit faqat raqam emas, uning ortida inson taqdiri turibdi. Endi mijoz bilan ishlashda ijtimoiy sabablar cheiga surib qo'yilmaydi, aksincha, hisobga olinadi.

Har bir murojaat bo'yicha talablar ravshan: qanday hujjat kerak, qaysi holatga qanday yondashiladi, qayerda kechiktirish mumkin, qayerda mumkin emas — barchasi cheklist tarzida belgilanmoqda.

Kredit tizimida sinovning eng og'iri inson qiyinalganda boshlanadi. Chunki bank qog'ozida "qarzdor" degan so'z turadi. Ammo hayotning o'zidan qarasangiz, u "qarzdor" ota yoki ona, ishsiz qolgan inson yoki og'ir kasal, nogiron shaxsni parvarishlovchi yoki homilador ayol...

Albatta, bank tizimi temir intizom bilan yashaydi. Ammo temir ham insoniylik bilan uyg'unlashsa, jamiyatda ishonch mustahkamlanadi. Ishonch bo'lsa, iqtisodiyot ham barqarorlashadi. Zero, moliyaviy tizimning eng katta kapitali pul emas, ishonch.

Bank tizimida haqiqiy barqarorlik kapital miqdori bilan emas, insonga munosabat bilan o'lchanadi. Agar inson og'ir kunlarda qonun doirasida qo'llab-quvvatlansa, ertasi kuni yana iqtisodiyotga ishonch bilan qaytib keladi.



Ushbu mahalladagi Hayitboy Jumaniyozov asalarichilik bilan shug'ullanadi. Hozir uning 100 quti asalarisi bor. Oilaviy faoliyati natijasida ro'zg'ori doim topib, iqtisodiy imkoniyati tobora oshib bormoqda.

Qisqasi, Amudaryo tumanining Do'rmon ovuli yirik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan, aholisi mehnatsevarligi, hamijhatligi bilan ajralib turadigan ovullaridan. Yillar davomida shakllangan dehqonchilik va chorvachilik an'analari bugun zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashib, ovul taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda.

"Mahalla yetilligi" vakillarining samarali va tizimli faoliyati natijasida hududda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish izchil ta'minlanmoqda. Ovulda 514 ta xonadon bor. Ularda 2677 kishi yashaydi. 2 ta maktab, 1 ta bog'cha, 3 ta oziq-ovqat do'koni, sartaorshoxona va ichimlik suvni tozalab, yetkazib berish shoxobchasi faoliyat yuritmoqda.

Qilingan tizimli va manzilli ishlar natijasida o'tgan yili ovulda yashovchi ishsiz 26 fuqaroga 470 million so'mlik imtiyozli kredit ajratildi. Shu bilan birga, 86 fuqaro o'zini o'zi band qilgan bo'lsa, 91 kishi doimiy ish o'miga ega bo'ldi. Shuningdek, yil boshidan buyon 8 ta yangi tadbirkorlik subyekti faoliyati yo'lga qo'yildi. Bularning barchasi hududning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlamoqda.

Ovulda xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida ham e'tiborga molik ishlar bajarilmoqda. Birgina misol: Muqaddas Ahmedova 5 yildan buyon tikuvchilik bilan shug'ullanadi. U 10 dan ortiq shogird tayyorlagan. Shu tariqa ishbilarmon ayol oilasining farovonligini ta'minlash bilan birga ko'plab xotin-qizlarning ishli to'lishiga munosib hissa qo'shmoqda.

Hududlar hayoti

MEHNATDAN BARAKA, TASHABBUSDAN OBODLIK SARI

Do'rmon ovulida doimiy daromad manbaiga ega bo'layotganlar safi tobora kengayib bormoqda. Bunga ularning imkoniyatlardan unumli foydalanayotgani sabab bo'lmoqda. Jumladan, hududda yashovchi Islom Qurbonov ko'p yillardan buyon chorvachilik bilan shug'ullanadi. Hozir 22 bosh qoramol boqib barqaror daromad topmoqda. Uning kelgusidagi rejalari ham katta. Faoliyatini kengaytirib, yirik chorvachilik xo'jaligi tashkil etish va yangi ish o'rinlari ochishni niyat qilgan.

Hududda oilaviy tadbirkorlik ham rivojlanib boryapti. "Xiva choxonasi" oilaviy korxonasida non va non mahsulotlari hamda milliy taomlar tayyorlanib, bozorga chiqarilmoqda. Ushbu faoliyat orqali oilaning barcha a'zolari ish bilan band bo'lgan.

Asli namanganlik Muhammadali To'liboyevga Qo'ng'iro't tumanli ahli mehr va hurmat bilan qaraydi. Qahramonimiz bu e'tiborga novvoylik butarafi, halol mehnati orqali erishgan.

— Dastlab oila a'zolarimiz bilan novvoylikni boshladik. Avval bitta, keyinroq uchta ish o'rmi

ochdik. Hozir 5 kishini doimiy ish bilan ta'minlaganmiz. Shuning o'ziyoq ishimiz ko'lami tobora kengayib, rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi, — deydi tadbirkor. — Xaridorlarimiz kun sayin ko'paymoqda. Shu bois, faoliyatimizni yanada kengaytirib, yangi ish o'rinlari ochishni reja qilganmiz.

Kegeyli tumanida faoliyat yuritayotgan "Kegeyli mebel" korxonasi ham namunali



tadbirkorlik subyektlaridan. Unda ishlab chiqarilayotgan 23 turdagi mebel Qozog'istonning Oqtov shahriga eksport qilinmoqda. Bu tuman tarixida mebelsozlik sohasidagi dastlabki eksportdir. Uning zamirida yangi O'zbekistonda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish,

tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tibor mujassam.

Shu bilan birga, mamlakatimizda aholining hayotiy muammolariga yechim topish borasida ham keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Jumladan, Kegeyli tumanida infratuzilma bilan bog'liq muammolarni barafar etish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilaypti. Jumladan, hududning Xalqobod shaharchasidagi "Xalqobod dehqon bozori" rekonstruksiya qilinib, foydalanishga

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Bugunning gapi

Bugun oddiy maktab o‘qituvchilarining 1000-2000 dollar maosh olishi tabiiy hol bo‘lib qoldi. Biroq bog‘cha tarbiyachisining ham shunday maosh olishiga ko‘pchilik ishonavermaydi.

MING DOLLAR MAOSH OLAYOTGAN TARBIIYACHI



11 yildan buyon tinimsiz o‘z ustimda ishlar ekanman, o‘qigan inson hech kimdan kam bo‘lmasligini yana bir karra tushunib yetdim. Ming dollar maosh olyapman desam, ko‘pchilik ishonmas, lekin bu haqiqat. Astoydil harakat qilsa, barcha tarbiyachilar shunday maosh olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ibrat

Mingbuloq tumanidagi Momoxon mahallasida joylashgan 45-davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi Dilorom Sulaymonova singari bog‘cha opalar o‘qituvchilar bilan barobar maosh olayotgani rost. U o‘tgan yili dekabr oyi uchun 1000 dollarga teng maosh oldi. To‘g‘ri, bu daromad o‘zidan o‘zi kelgani yo‘q. Ilm bilan obro‘ topmoq — eng mashaqqatli yo‘l. Dilorom erishgan yutuqlar zaminida ham mashaqqatli mehnat, tinimsiz intilish, izlanishlar mujassam.

2015-yili Qo‘qon davlat pedagogika oliygohining maktabgacha ta‘lim yo‘nalishini tamomlagan Dilorom amaliy faoliyat davomida ham o‘qib-o‘rganishdan, tajriba o‘rtirishdan to‘xtamadi. U, ayniqsa, so‘nggi yillarda maktabgacha ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan, ilgari bo‘lmagan imkoniyatlardan unumli foydalandi. Xususan, 2025-yilda attestatsiyada qatnashib, 88 foiz natija bilan oliy toifali tarbiyachi maqomiga erishdi.

Tarbiyachilardan birining bunday gaplari esmda qolgandi: “Agar bolalarni o‘z farzandingizdek yaxshi ko‘rmasangiz, tarbiyachi bo‘lishingiz qiyin. Chunki kasbingizni sevsangiz, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilar sizga bolangizdek yaqin bo‘lib qoladi. Shundan kelib chiqib, har bir bolaga alohida e‘tibor berishga harakat qilaman. Farzandlarimiz kabi ularning har biri o‘ziga xos dunyoqarash va fe‘l-atvorga ega.



Ishga shuni chin dildan his qilib yondashish kerak. Tarbiyachilikni yaxshi ko‘rganim uchun bolalar bilan ishlash menga kuch va ishtiyoq beradi. Ulardan quvvat olaman. Faoliyatim davomida ko‘plab kichik do‘stlar orttirdim. Bolalar bilan birga bo‘lish, ularning quvunchiga sheriklik men uchun eng katta baxt.”


Fidoiy tarbiyachi Dilorom Sulaymonova ham bu fikrlarga qo‘shiladi.

— Biz, tarbiyachilar ilgari maktab o‘qituvchilariga havas bilan qarardik, — deydi u. — O‘zimming ham to‘rt opa-singlim o‘qituvchi. Doim yig‘ilib qolsak, “Sizlarga qanday yaxshi, maoshlaring ko‘p”, derdim. Endi esa biz, tarbiyachilar uchun ham shunday imkoniyatlar yaratib berildi. Izlansak, o‘qib-o‘rgansak, barcha sharoitdan unumli foydalana olsak, o‘qituvchi hamkasblarimiznikidan kam bo‘lmagan maosh olib ekanmiz. Men buni o‘z faoliyatimda ko‘rdim. Oliy ma‘lumotli bo‘lganimdan so‘ng ham soham bo‘yicha

beriladigan ustamaga ham erishish istagida. O‘z yo‘nalishida magistratura bosqichida o‘qishni rejalashtirayotgani esa davlatimiz yaratib bergan imkoniyatlarning xotinqizlar hayotida muhim o‘rin tutayotganidan dalolat.

Bugun yurtimizda ezgu maqsadi yo‘lida intilayotgan, izlanayotgan diloromlar ko‘p. Zero, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining byudjet hisobi yil sayin o‘sib borayotgani bejiz emas. Ajratilayotgan umumiy pulning qariyb 85 foizdan ziyodi, ya‘ni oyiga 4 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to‘lovlariga yo‘naltirilmoqda. Bundan esa mamlakatimizdagi 545 ming pedagog, 200 mingdan ortiq maktabgacha ta‘lim tashkiloti xodimlari bahramand bo‘lmoqda.

Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Abduvali XOLIQOV,
Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori

Sun‘iy intellekt inson aqlining ayrim xususiyatlariga xos funksiyalarni bajara oladigan kompyuter tizimi, intellektual algoritmlar va katta hajmdagi ma‘lumotlar to‘plamiga tayangan texnologiyalar majmui. Bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan “aqlli” texnologiyalarga shunday ta‘rif berilyapti.

Lekin shunisi aniqiki, ular barcha sohada, xususan, ta‘limda tizimli o‘zgarishlarni boshlab bermogda. Masalan, o‘qitish jarayonining individuallashishi, o‘quv natijalarini tezkor tahlil qilish imkoniyati kengayishi, o‘quvchi bilim va ko‘nikmalarini avtomatik baholash mexanizmlari yaratilishi aynan sun‘iy intellekt bilan bog‘liq. Bu esa an‘anaviy “ommaviy o‘qitish” modelidan shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va natijaga qaratilgan ta‘lim tizimiga o‘tish uchun mustahkam zamin yaratyapti.

Jahon miqyosida kuzatilayotgan global tendensiyalar ta‘lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayoni jadal kechayotganini ko‘rsatmoqda. Biroq hozirgi davr faqat yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanib qolmaydi. Pedagoglar oldiga kasbini mustahkamlab borish, ertangi ta‘lim yo‘lida ko‘nikmalarni hosil qilish kabi vazifalarni qo‘ymogda. Chunki texnologiya o‘z-o‘zidan ta‘lim sifatini kafolatlamaydi. Uning samarasi, avvalo, pedagogning bilim darajasi, tayyorgarligi va ongli qo‘llash madaniyatiga bog‘liq. Shubhasiz, bunda pedagogning sun‘iy intellekt savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sun‘iy intellekt savodxonligi esa pedagogning bunday texnologiyalarni faqat texnik jihatdan bilishi emas, balki ularni anglash, ishlatis, tahlil qilish va ta‘lim jarayonida integratsiya qila olish kabi qobiliyatiga tayanadi.

Qayd etganimizdek, hozir sun‘iy intellekt ta‘lim jarayonining deyarli barcha bog‘iniga kirib bordi. Baholash tizimlari takomillashtirilyapti. Talabalarining o‘quv faoliyati real vaqt rejimida tahlil etilib, individual ta‘lim yo‘llari shakllanmogda. Raqamli o‘quv kontentini yaratish jarayoni tezlashyapti. Bu jarayonda eng muhim o‘zgarish texnologiyalarda emas, balki pedagogning o‘zida namoyon bo‘lmoqda. Endi o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tahlilchi, raqamli ta‘lim jarayonlarini boshqaruvchi, sun‘iy intellekt vositalaridan samarali foydalana oladigan metodist hamda talabanning texnologiyalardan to‘g‘ri, ongli va mas‘uliyatli foydalanishini ta‘minlovchi mentor sifatida maddonga chiqmogda. Shu ma‘noda, sun‘iy intellekt pedagog uchun tahdid emas, balki uning kasbiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi kuchli vositadir.

Sun‘iy intellekt savodxonligi pedagogning professional samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Dars rejalari ishlab chiqish, o‘quv materiallarini tayyorlash, test va nazorat ishlarini tahlil qilish, ta‘lim natijalarini monitoring qilish kabi ma‘muriy va metodik jarayonlar raqamlashtirilishi professor-o‘qituvchilarning vaqtini tejaydi. Natijada pedagog ilmiy tadqiqot ishlari, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda talabalar bilan mazmunli muloqot o‘rnatishga ko‘proq e‘tibor qaratadi.

Shu bilan birga, sun‘iy intellekt savodxonligi talabalar bilan o‘zaro aloqani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. SI asosidagi tahlil vositalari orqali talabalarining qiyinchiliklari va ehtiyojlari o‘z vaqtida aniqlanib, ularga individual pedagogik yordam ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa talabalarining o‘quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil ta‘limga qiziqishini kuchaytirish va ta‘lim jarayonida faol ishtirokini ta‘minlaydi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

DAVR TALABI

YOXUD PEDAGOG VA SUN‘IY INTELLEKT UYG‘UNLIGI HAQIDA MULOHAZA

Xalqaro tadqiqotlar pedagoglarning sun‘iy intellektni bilishi ta‘limda innovatsiyalarni qabul qilish jarayonini jadallashtirishi, o‘qitish sifatini oshirishi va ta‘lim natijalarini yaxshilashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlamoqda. Shu bois, endilikda unga oliy ta‘lim tizimi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralyapti.

Xalqaro tajribadan nimalarni o‘rganishimiz mumkin?

Sun‘iy intellekt ta‘limga tizimli va strategik asosda joriy etgan davlatlar kam emas. Misol uchun, AQSH, Janubiy Koreya, Singapur, Buyuk Britaniya va Xitoy ta‘lim siyosatida sun‘iy intellekt ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olingan. Ushbu davlatlar tajribasi SI texnologiyalari ta‘lim sifatini oshirishi, pedagogik mehnat samaradorligini ta‘minlashi va inson kapitalini rivojlantirishi mumkinligini amalda isbotlab bermogda. Ayniqsa, yetakchi universitetlar misolida sun‘iy intellekt ta‘limini tashkil etishning turli, ammo o‘zaro to‘ldiruvchi modellari shakllanganini ko‘rish mumkin. Masalan, AQSHning Kaliforniya universitetida sun‘iy intellekt dasturlari informatika bilan cheklanib qolmaydi. Tibbiyot, biomuhandislik, iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar bilan chuqur integratsiya qilingan holda amalga oshiriladi. Bu yondashuv Sini alohida fan sifatida emas, balki turli sohalarda qo‘llaniladigan universal



orqali milliy iqtisodiyotga ham to‘g‘ridan to‘g‘ri ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim tizimida SI dan samarali foydalangan mamlakatlarda innovatsion fikrlay oladigan, raqamli kompetensiyalarga ega va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash sur‘ati sezilarli darajada oshgan.

O‘zbekiston uchun ham ushbu tajribalarni mexanik ravishda ko‘chirish emas, balki milliy sharoit, demografik imkoniyatlar va ta‘lim islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda o‘z modelini yaratish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar soni ko‘pligi, ularning raqamli texnologiyalarga qiziqishi yuqoriligi va davlat tomonidan ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bunda mustahkam poydevor yaratadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish, uni milliy

maxfiyligini saqlash, pedagogik mas‘uliyatni kuchaytirish hamda sun‘iy intellekt bilan bog‘liq ehtimoliy xavf-xatarlarni boshqarish masalalarini qamrab oladi. Ayniqsa, talabalar SI dan noqonuniy yoki maqsadsiz foydalanishi holatlarining oldini olishda pedagogning rolini aniq belgilab beradi.

Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, u zamonaviy pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Ya‘ni model sun‘iy intellektni o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki uning kasbiy salohiyatini kuchaytiruvchi, tahliliy va metodik imkoniyatlarini kengaytiruvchi resurs sifatida qarashga asoslanadi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu modelni joriy etish oliygohlarda sun‘iy intellekt savodxonligini tizimli ravishda shakllantirish, ta‘lim sifatini oshirish va raqamli jamiyat talablariga mos pedagoglar avlodini tayyorlashda muhim qadam bo‘lishi mumkin.

E‘tibor qaratish zarur bo‘lgan jihatlar

Bugungi kunda oliy ta‘limda raqamli transformatsiya, ta‘lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga uyg‘unlashuv jarayoni jadal kechmogda. Bunday sharoitda sun‘iy intellektdan samarali va mas‘uliyatli foydalanish o‘quv dargohlari raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, avvalo, professor-o‘qituvchilar uchun sun‘iy intellekt bo‘yicha majburiy va bosqichli malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur. Har bir pedagog yil davomida kamida 24 soatlik SI modulidan o‘tishi, bu jarayonda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy keyslar, fanga mos qo‘llanish misollari va etik me‘yorlar bilan tanishishi lozim. Bu o‘qituvchilarda SI dan foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida sun‘iy intellekt laboratoriyalari va innovatsion maydonlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday laboratoriyalar talabalar, magistrantlar va yosh tadqiqotchilar uchun amaliy tajriba o‘tkazish, ilmiy-amaliy loyihalarni ishlab chiqish hamda startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Ayniqsa, hududiy oliygohlarda bunday markazlarni bosqichma-bosqich tashkil etish kadrlar salohiyatini hududlar kesimida rivojlantirishga yordam beradi.

Ta‘lim jarayonida akademik halollikni ta‘minlash uchun SI asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Plagiat, sun‘iy intellekt orqali mustaqil ish va nazorat topshiriqlarini noqonuniy bajarish kabi holatlarni aniqlash va oldini olish bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Bu, bir tomondan, ta‘lim sifatini muhofaza qilsa, ikkinchi tomondan, talabalarda halollik va mas‘uliyat hissini shakllantiradi.

Sun‘iy intellekt yordamida ta‘lim sifatini monitoring qilish tizimini joriy etish zarur. Bunda o‘quv jarayoni, talabalarining faolligi, o‘zlashtirish darajasi va ta‘lim natijalari real vaqt rejimida tahlil etilib, rahbariyat va pedagoglar uchun asosli qarorlar qabul qilish imkoni yaratiladi.

Milliy ta‘lim muhitini hisobga olgan holda o‘zbek tilida sun‘iy intellektga oid o‘quv-metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish kechiktirib bo‘lmaz vazifadir. Har bir fan va yo‘nalish bo‘yicha SI dan foydalanish imkoniyatlarini tushuntiruvchi, amaliy misollar bilan boyitilgan metodik qo‘llanmalar pedagoglar va talabalar uchun qulay resursga aylanishi kerak. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, til va madaniyatni saqlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilishi shart.


Kelajak pedagogikasi bugundan boshlanadi. Sun‘iy intellekt esa ta‘limni almashtiruvchi texnologiya emas, pedagogning kasbiy salohiyatini kuchaytiruvchi, uning imkoniyatini kengaytiruvchi samarali vositadir. Zamonaviy bilimdonlik belgisi, raqobatbardoshlik mezonini va mamlakatning intellektual taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omildir. Shunday ekan, bu borada qancha ko‘p bilsak, shuncha foydali. Sun‘iy intellekt o‘qituvchini ma‘muriy yukdan ozod etadi. O‘quvchi-talabani fikrlashga undab, shaxsiy kamoloti yo‘lida ishlashga yo‘naltiradi. Natijada ta‘lim jarayonida inson omili, ma‘naviy tarbiya va intellektual rivojlanish uyg‘unlashadi. Demak, sun‘iy intellektni anglayan, undan samarali foydalanadigan va uni ta‘lim manfaatlariga yo‘lida to‘g‘ri boshqara oladigan pedagoglarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim talabidir.



Turizm

YILIGA 45 MILLION SAYYYOH

MARRA HAM, SALOHIYAT HAM, SHUNGA YARASHA TAYYORGARLIK HAM KATTA



Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash, oilalarning daromadini ko'paytirish borasidagi islohotlar tufayli ishsizlik darajasi keskin kamaydi, odamlarning xarid qobiliyati oshdi. Shunga monand xalqimizning turmush sifati yuksalib, farovonligi ta'minlamoqda.

Bu natijalarga erishishda jamiyatning turli sohaları, xususan, iqtisodiyot tarmog'ida yangilanishlar samarasi katta. Yangi soha va tarmoqlarga keng yo'l ochilgani rivojlanishning muhim omili bo'layotir. Sayyohlik mana shunday yo'nalishlardan.

Mamlakatimizning bebaho tarixiy va ma'naviy merosi, xalqimizning o'ziga xos milliy an'ana va urf-odatlar azaldan dunyo ahli e'tiborini tortib kelgan. So'nggi yillarda yurtimizning jahonga keng ochilishi, jamiyatni demokratlashtirish va turli sohalarini jadal rivojlantirish borasidagi yangi istiqbollar sayyohlikning tezkor o'sishiga turki bo'layotir.

Turizm sohasida so'nggi yillarda 2000 dan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. Birgina Toshkent viloyatining Bo'stonliq hududida Amirsoy va "Ugam River" kabi kurortlar, "Bildirsoy — Chimyon — Nanay" turizm maskanlari tashkil etildi. Hududlarda turizm va servis infratuzilmasi juda tez rivojlanayapti. Keyingi yillarda sohaga 6 milliard

500 million dollar sarmoya kiritilib, 130 mingta mehmon o'rni ochildi. Bugun 20 ta turizm qishlog'i faoliyat yuritayapti.

Bunday o'sish sur'ati chet ellik investorlarni ham jalb etmoqda. Natijada yangi infratuzilmalar ko'lami kengaymoqda. Jumladan, Parkent tumanining Oltin bel cho'qqisida xalqaro darajadagi yangi tog'-chang'i zonasi barpo etilyapti.

Turizm rivojida yo'l va transport infratuzilmasi ham muhim omil. Shu bois, transport infratuzilmasining barcha yo'nalishi mutanosib rivojlantirilmoqda. Ayniqsa, aviatsiya sohasida yangi ekotizimni shakllantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar bajarilmoqda. Eng muhimi, jabhada raqobat muhiti yaratilgani sababli 15 ta yangi aviakompaniya paydo bo'ldi. Ularning aviaparkidagi havo kemalari soni 26 tadan 105 taga yetdi.

Turizm qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2025-yilda turizm sohasida barqaror o'sish sur'ati qayd etildi. Xususan, o'tgan yilning 11 oyida turizm xizmatlari eksporti qiymati 4 milliard dollardan oshdi. Ichki turizm bo'yicha "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida aholining hududlarga 23,7 million marta qatnovi kuzatildi.

Hududlarda mingga yaqin joylashtirish vositasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 662 ta yangi sayyohlik tashkiloti va turagientlik tashkil etilishi natijasida ular soni 4348 taga yetdi. Mamlakat bo'ylab 4345 ta gid-ekskursovod faoliyat yuritmoqda. Tadbirkorlik subyektlariga berilgan tavsiyalar tufayli sanitariya-gigiyena shoxobchalari holati yaxshilanishiga erishildi.

O'zbekistonning xalqaro maydondagi sayyohlik salohiyati faol targ'ib etildi. Bu yo'nalishda xorijiy davlatlardagi yigirmadan ortiq ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etildi. Rossiya va Xitoyda madaniy va targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Xorijiy 15 ta yirik mediaplatformada mamlakatimizning sayyohlik salohiyatiga oid 50 ga yaqin kontent joylashtirildi.

Investitsiya sohasida 421 ta loyiha amalga oshirilib, 6300 dan ortiq yangi ish o'rni



“

Sayyohlar oqimi tobora oshayotgani aviatsiya va temir yo'lining yo'lovchi tashish quvvatini 2 barobar ko'paytirishni taqozo etmoqda. Shu bois, 2026-yilda aviaparkdagi havo kemalari sonini 105 tadan 120 taga yetkazish ko'zda tutilgan. Mahalliy aviaqatnovlar sonini oshirish uchun subsidiyalashning yangi tizimi joriy etiladi.

ochildi. Toshkentda yangi brenddagi qator mehmonxonalar ishga tushirildi. Hududlarda yangi turizm qishloqlari tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatida yirik 3 ta turizm klasteri faoliyati yo'lga qo'yildi. Konimex tumanidagi "Sputnik Navoiy" turizm klasteri shulardan biri.

Mazkur klaster tarkibida turizm, transport va mehmonxona yo'nalishiga ixtisoslashgan korxonalar faoliyat yuritayapti. Aydarko'l bo'yida zamonaviy dam olish maskani barpo etilgan. Hududning cho'l landshaftini sayyohlarga ko'rsatish maqsadida o'tov tiklangan. Umuman, mazkur klaster tarkibidagi mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari orqali bir vaqtning o'zida 400 sayyohga xizmat ko'rsatish imkonini mavjud.

Klaster ta'sischi Tolib Jahongirovning aytishicha, ana shunday zamonaviy imkoniyatlardan unumli foydalanilib, o'tgan yili 17 mingga yaqin xorijiy va mahalliy sayyohga xizmat ko'rsatildi. 2026-yilning ilk kunlaridayoq chet eldan 5000 ga yaqin sayyoh kelishi bo'yicha oldindan buyurtma olingani nafaqat hududning o'ziga xos turizm salohiyati, balki sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha imkoniyatlaridan ham dalolat.

— Dunyoda iqtisodiy vaziyat murakkablashgan bugungi davrda yangi ish o'rnlari ochish, investitsiya va eksportni ko'paytirishda turizm tarmog'ining ahamiyati yanada oshmoqda, — deydi tadbirkor. — Zero, bu sohaga yo'naltiriladigan mablag' kelgusida 3-4 barobar ko'p daromad keltiradi. Har bir

yangi ish o'rni boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyi hosil qiladi. Shu bois, sayyohlik tarmog'i rivojlanishi iqtisodiy-jitmoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda.

O'zbekiston boy madaniy va tarixiy merosi, mehmondo'st xalqi va go'zal tabiati tufayli turizm sohasida katta imkoniyatga ega. Yurtimizda 8200 ta madaniy meros obyekti mavjud. Ularning bir qismi UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz esa jahonga mashhur shaharlardir.

So'nggi yillarda yurtimizda bu boradagi salohiyatdan unumli foydalanishga e'tibor kuchaydi. Turizmni rivojlantirishga qaratilgan qator muhim huquqiy hujjatlar qabul qilindi va institutsional tizim shakllantirildi. Natijada sayyohlik milliy iqtisodiyotning o'sish nuqtalaridan biriga aylandi.

Aslida, yurtimiz tarixi, madaniyati va tabiatiga asoslanib, sayyohlarni yana 2-3 karra ko'paytirish mumkin. Shu bois, keyingi besh yilda xorijlik turistlar sonini 2 barobar oshirib, yiliga 20 million sayyohni jalb etish ko'zda tutilmoqda. Turizm xizmatlari qiymatini esa 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olinmoqda.

Shu maqsadda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Bu jarayonda tarixiy qadamlarni bir-biri bilan bog'laydigan zamonaviy yo'lak va ko'priklar barobarida yirik turistlik majmualar barpo etiladi. Xorazm va Qoraqalpog'istondagi arxeologik yodgorliklar bo'ylab yirik turizm halqasi tashkil etiladi.

Shuningdek, joriy yilda tadbirkorlar 4 milliard dollarlik 3500 dan ziyod yangi servis obyektni ishga tushiradi. Turizm maskanlarini tashkil qilish uchun kelgusi uch yilda 5000 gektar yer auksionga chiqariladi.

Bundan tashqari, 2026-yildan "O'zbekiston merosi mehmonxonalar" dasturi doirasidagi ishlar boshlanib, loyiha ishtirokchilariga yer, mulk, foyda solig'i va bojxona to'lovi bo'yicha imtiyoz beriladi.

Sayyohlar oqimi tobora oshayotgani aviatsiya va temir yo'lining yo'lovchi tashish quvvatini 2 barobar ko'paytirishni taqozo etmoqda. Shu bois, 2026-yilda aviaparkdagi havo kemalari sonini 105 tadan 120 taga yetkazish ko'zda tutilgan. Mahalliy aviaqatnovlar sonini oshirish uchun subsidiyalashning yangi tizimi joriy etiladi.

Ichki temir yo'llarni rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi. Avtomobil yo'llarining sifati yaxshilash, tranzit salohiyatini yanada oshirish maqsadida besh yillik dastur amalga oshiriladi.

Shu kunlarda jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining yangi tahrirdagi loyihasida turizm rivojiga yo'naltirilgan ustuvor vazifalar ham o'z aksini topgan. Xususan, hujjatga muvofiq, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi asosida ichki sayyohlar sonini 25 millionga, xorijiy turistlar sonini 20 millionga yetkazish rejalashtirilyapti. Yo'l, transport va sayyohlik infratuzilmalarini tubdan takomillashtirib, xizmat ko'rsatish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, sayyohlik klasterlari sonini ko'paytirish, turizm qishloq va mahallalari, ko'chalarini 175 taga yetkazish ko'zda tutilgan.

"Yangi O'zbekiston" massivlari, xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida savdo va servis tuzilmalari barpo etiladi. Hududlarda yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar quriladi. Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistrallar mobil aloqa bilan ta'minlanadi. Shu tarqqa turizm xizmati eksporti ko'payib, mamlakatimizning iqtisodiyoti yanada yuksalishiga zamin hozirlanadi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



SURXONDA BODOM GULLADI



Tabiat va biz

Sherobod tumani "Surxon" davlat qo'riqxonasi "Bog'li dara" hududida bodom gulladi. Daraning toshloq bag'irlarida, qor parchalari bilan yonma-yon turgan pushti va oq yaproqlar manzarasi inson ruhiyatiga o'zgacha taskin va umid bag'ishlaydi. Bu holat nafaqat ko'zni quvontiradi, balki tabiatning naqadlar sirli va qudratli ekanini yana bir bor namoyon etadi go'yo.

— Qo'riqxonada bodom daraxti ko'p uchraydi. Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — juda erta gullashi. Shuning uchun tuproq-iqlim sharoiti o'zgaruvchan hududlarda bodomning generativ organlariga ko'pincha bahorgi qora sovuq katta zarar yetkazadi. Bodom qo'riqxonalarida yovvoyi holda o'sadi. Yer

tanlamaydi, suvsiz, toshloq va tog'ning unumsiz janubiy yonbag'irlarida ham yaxshi o'sib hosil beradi. Ildizi 6 metr chuqurlikkacha yetadi. Shu sabab ham ilqiligni tezda o'zlashtiradi va erta gullash bosqichiga o'tadi, — deydi "Surxon" davlat qo'riqxonasi direktori Rustam Turdiyev.

Aslida, qishning qahraton kunlari va tog' tizmalarini qoplagan qalin qor nafaqat borliqni oq rangga burkaydi, balki yovvoyi tabiat uchun ham chinakam kurash va sinov davrini boshlab beradi. Xususan, tog'li hududlarda qor qalinligi ortgani sayin yovvoyi hayvonlarning tabiiy ozuqa topishi ham mashaqqatga aylanib, qishdan betarafot chiqishi xavf ostida qoladi. Buning oldini olish maqsadida qo'riqxonalarda biotexnik tadbirlar o'tkaziladi.

Murakkab va sinovli kunlarda "Surxon" davlat qo'riqxonasining barcha hududida yovvoyi hayvonlarni sovuqdan asrash, qishning qorli va qirovli kunlaridan sog' omon olib chiqish maqsadida tizimli biotexnik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tabiatga va jonzotlarga g'amxo'rlik ifodasi bo'lgan ana shunday tadbirlardan biri qo'riqxonaning maftunkor "Xatak" bo'limida yuqori saviyada tashkil etildi.

Qo'riqxona xodimlarining fidokorona sa'y-harakati bilan noyob turdagi hayvonlarning bosh sonini saqlab qolish

va ekotizim barqarorligini ta'minlashga erishilmoqda. E'tiborli jihati shundaki, bu jarayon nafaqat ozuqa tarqatish, balki chuqur ilmiy kuzatuvlar bilan ham uyg'unlashtirilgan. Ozuqa to'kilgan maskanlarda o'rnatilgan zamonaviy fotoqopqonlar yordamida hayvonlarning oziqlanish jarayoni, qish sharoitidagi holati va salomatligi uzluksiz monitoring qilib borilmoqda. Ushbu "aqlli" texnologiyalar

yordamida olingan tasvirlar qo'riqxona ilmiy xodimlariga yovvoyi tabiatning qishki hayoti, holati haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tabiat posbonlari tog'larning baland nuqtalariga, hayvonlar doimiy ravishda harakatlanadigan va jamlanadigan hududlarga maxsus ozuqa bazalari — pichan, don va hatto zarur bo'lgan mineral tuzlarni qo'yib chiqdi. Qo'riqxona Ko'hitang

tog'larining sharqiy yonbag'irlarida, dengiz sathidan 850-3137 metr oraliq'ida balandlikda joylashgan. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumaniga qarashli bu hudud Turkmaniston davlat chegarasigacha cho'zilgan. Qo'riqxonada 807 turdagi o'simlik bo'lib, shundan 47 xili "Qizil kitob"ga kiritilgan.

Qo'riqxonada hozirgacha umurtqali hayvonlardan 26 turdagi sut emizuvchilar, 137 turdagi qushlar, 24 turdagi sudralib yuruvchilar, 2 turdagi suvda va quruqlikda yashovchilar, 5 turdagi baliqlar, xullas, jami 194 turdagi hayvonot dunyosi vakillari uchrasini aniqlangan. 25 turdagi hayvonlar O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgan. Qo'riqxonada muhofazaga olingan hayvonlardan 18 turi Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining "Qizil ro'yxat"ida. Xususan, morxo'r yoki burama shoxli edki, Buxoro tog' qo'yi noyob turga mansub hayvonlardan.

Yurtimiz janubida bodom gullashi va qo'riqxonalarida davom etayotgan hayot borliqning yengilmas irodasi, umidning beqiyos kuchi va go'zallikka tashnalikning yorqin ramzidir. Muzlagan zamin uzra pushti va oq ranglarga burkangan munis bodom gullarining ochilishi bahorning qish saltanatiga qilgan jur'atli va o'ta erta tashrifiga o'xshaydi. Uning har bir gulbargi, har bir shiviri kelayotgan iliq kunlar sadosidir.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeks — 236. Buyurtma — G-246.
30829 nusxada bosilgan.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy